

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA


YANGI O'ZBEKISTON: ILMYIY TADQIQOTLAR

CONFERENCES.UZ

2026

DAVRIYLIGI: 2018-2026

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR BATAREYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TALIM MUJASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TADIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



MAY №88



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР
1-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC
RESEARCH PART-1**

ТОШКЕНТ-2026



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 88-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 174 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви-

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика-

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –



Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт-

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни -

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Мусиқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20. Ветеринария

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21. Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоний вилояти табиий фанлар методисти)

22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Ўўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакцији журнала.

www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of

www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH
VA TA’LIM IJTIMOIIY ADOLAT STRATEGIYASI

Xolmatov Farruxbek Ravshanjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Davlat Boshqaruv huquqi” magistri

farruxxolmatov598@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan ijtimoiy davlat modelining ustuvor yo‘nalishlari bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish hamda ta’lim tizimida ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish masalalari tizimli tahlil etiladi. Maqola yakunida inson kapitalini tizimli rivojlantirish va ta’lim sifatidagi hududiy tafovutlarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, ijtimoiy adolat, ijtimoiy davlat, ta’lim islohotlari, inson qadri, ijtimoiy mobillik, inklyuziv ta’lim.

Kirish

Zamonaviy taraqqiyot bosqichida inson kapitali har qanday davlatning nafaqat iqtisodiy o‘shini, balki uning global maydondagi raqobatbardoshligini belgilovchi eng asosiy strategik resursiga aylandi. Bugungi kunda jahon hamjamiyati moddiy ishlab chiqarish modelidan “bilimlar iqtisodiyoti”ga o‘tayotgan bir paytda, ijtimoiy davlatning legitimligi uning o‘z fuqarolari uchun intellektual va professional yuksalish imkoniyatlarini qay darajada teng yaratib berishi bilan o‘lchanmoqda [1]. Mazkur jarayonning huquqiy asosi sifatida 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyani alohida e’tirof etish lozim [2]. Bosh qomusning 1-moddasida O‘zbekistonning ilk bor rasman “ijtimoiy davlat” deb e’lon qilinishi, davlat zimmasiga fuqarolarning sifatli ta’lim olishi va o‘z intellektual imkoniyatlarini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qat’iy majburiyatlarni yukladi. Konstitutsiyaning 50-moddasiga muvofiq, har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi kafolatlanib, davlat bepul umumiy ta’limni o‘z zimmasiga oldi. Bu shunchaki deklarativ norma emas, balki jamiyatda ijtimoiy mobillikni (ya’ni insonning o‘z bilimi orqali ijtimoiy zinapoyadan yuqoriga ko‘tarilishi imkoniyatini) ta’minlovchi fundamental adolat mexanizmidir. Zero, ta’limdagi ijtimoiy adolat insonning moddiy imkoniyatlari yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, uning iqtidori va mehnatiga yarasha sifatli bilim olishda hamma bilan teng imkoniyatga ega bo‘lishini anglatadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish bo‘yicha ulkan maqsadlar belgilangan [3]. Xususan, maktabgacha ta’lim qamrovini 100 foizga yetkazish, maktablarda har yili 500 ming yangi o‘quvchi o‘rni yaratish hamda oliy ta’lim tizimida xotin-qizlar va ehtiyojmand qatlamlar uchun maxsus kvotalar joriy etish kabi vazifalar ijtimoiy adolat strategiyasining ajralmas qismlaridir. Biroq,



raqamli ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, ta'lim sifati va inson kapitalining professional darajasini oshirish masalasi hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini tahlil qilish, ta'lim islohotlarining ijtimoiy adolat mezonlariga muvofiqligini baholash hamda sohadagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqishdan iborat

Ushbu tadqiqotning ilmiy arxitekturasini shakllantirishda Yangi O'zbekistondagi ta'lim islohotlari va inson kapitalini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan kompleks hamda fanlararo yondashuv ustuvor vazifa qilib olindi. Tadqiqot jarayonida shunchaki faktlarni tavsiflashdan ko'ra, ijtimoiy-huquqiy transformatsiyalarning mazmun-mohiyatini tizimli tahlil qilish uchun bir qator metodologik vositalar uyg'unlikda qo'llanildi.

Birinchidan, dialektik va tarixiy-mantiqiy tahlil metodi yordamida davlat qurilishining evolyutsion bosqichlari o'rganildi. Mazkur usul mustaqillikning dastlabki yillaridagi "davlat – jamiyat – inson" modelidan bugungi kunda hayotiy zaruratga aylangan "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'tishning obyektiv sabablarini tushuntirish imkonini berdi. Bu jarayon inson qadriini ulug'lashga yo'naltirilgan fundamental strategik siljish sifatida baholandi. *Ikkinchidan*, qiyosiy-huquqiy metod tadqiqotning o'zagini tashkil etib, O'zbekistondagi islohotlarni xalqaro standartlar fonida ko'rsatishga xizmat qildi. Xususan, rivojlangan davlatlarning ijtimoiy himoya modellari, jumladan, Finlyandiyaning 2021-yildagi islohotlari natijasida tashkil etilgan "farovonlik tumanlari" (*well-being services counties*) tajribasi bilan O'zbekistondagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlari faoliyati o'rtasidagi tipologik o'xshashliklar qiyosiy tahlil etildi [4]. *Uchinchidan*, tadqiqotda aksiologik (qadriyatga asoslangan) yondashuv alohida o'rin tutadi. Bunda ijtimoiy adolat va ta'limdagi tenglik tushunchalari quruq huquqiy norma emas, balki xalqimizning ma'naviy merosi va milliy qadriyatlari prizmasidan tahlil etildi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy va institutsional tahlil yordamida 2023-yildagi yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va sohaviy farmonlarning huquqiy oqibatlarini o'rganildi. *To'rtinchidan*, empirik va statistik ma'lumotlarni qayta ishlash metodidan keng foydalanildi. Bunda 2017–2024-yillar oralig'idagi rasmiy statistika, xususan, maktabgacha va oliy ta'lim qamrovi dinamikasi hamda pedagoglar attestatsiyasi natijalari (xususan, 60 foizdan ortiq qayd etilgan past ko'rsatkichlar kabi obyektiv raqamlar) tanqidiy baholandi [5]. Yakuniy bosqichda tizimli-funksional yondashuv orqali Milliy ijtimoiy himoya agentligi va "Mahalla yettiligi" tizimining quyi bo'g'indagi amaliy samaradorligi o'rganildi [6]. Mazkur metodologik sintez tadqiqot natijalarining ishonchliligini va xulosalarning ilmiy yangiligini kafolatlaydi.

Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim tizimida ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish borasidagi islohotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatda ta'limning barcha bosqichlarida ham miqdoriy, ham sifat ko'rsatkichlari dinamik tarzda transformatsiya bo'lmoqda. Xususan, inson salohiyatining fundamental poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasida so'nggi yillarda tub burilish yasaldi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yanvar



holatiga ko'ra, 3–7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 74 foizga yetdi va bu esa 2017-yildagi 27 foizlik ko'rsatkichga nisbatan qariyb uch baravarlik o'sishni anglatadi [7]. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ushbu qamrovni 100 foizga yetkazishning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlari ishga tushirilishi, amalda ijtimoiy adolatning "teng start imkoniyatlari" tamoyili hayotga tatbiq etilayotganidan dalolat beradi. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar ham inson kapitalining professional darajasini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari sonining 213 taga yetkazilishi natijasida yoshlarni qamrab olish darajasi 42 foizgacha ko'tarildi [8].

Tadqiqot so'ngida xulosa qilar ekanmiz, Yangi O'zbekistonning ta'lim sohasidagi islohotlari bilimga asoslangan jamiyatni barpo etishning strategik drayveridir deb ta'kilashimiz mumkin. Ushbu yo'nalishdagi ishlarning izchil davom ettirilishi Uchinchi Renessans poydevorini qurish va 2030-yilga qadar O'zbekistonning dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan mustahkam o'rin egallashining asosiy kafolatidir. Ta'limda haqiqiy adolat tantana qilgan jamiyatgina mustahkam barqarorlikni va inson qadrini amalda ta'minlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. The Changing Nature of Work: World Development Report. – Washington, DC: World Bank, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
4. Ministry of Social Affairs and Health of Finland. Health and social services reform: Regional government structure. [Electronic resource]. URL: <https://stm.fi/en/well-being-services-counties> (Date of access: 25.04.2026).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Ta'lim sohasidagi statistik ko'rsatkichlar (2017–2024-yy).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil yakunlari bo'yicha tahliliy hisoboti. Toshkent, 2024.
8. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik ma'lumotlar bazasi. // <https://edu.uz/uz/news/view/6341> (Murojaat sanasi: 25.04.2026).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotnomasi. 2024.
10. Sobirovich, T. B. (2020). The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(8), 509-511.



ГИЁХВАНДЛИК - ЖАМИЯТГА ТАҲДИД, КЕЛАЖАККА ТЎСИҚ

Сайлиев Бекзод Шавкатович
Жиноят ишлари бўйича Бўстонлик
туман судининг судьяси

Бугунги кунда гиёхванд моддалар муаммоси жамиятнинг энг оғриқли ва долзарб масалаларидан бирига айланиб бормоқда. Бу иллат секин-аста, аммо жуда қатъий тарзда инсон ҳаётини издан чиқаради, унинг нафақат жисмоний, балки маънавий дунёсини ҳам емириб боради. Энг хавфли жиҳати шундаки, гиёхвандлик фақатгина алоҳида шахснинг муаммоси бўлиб қолмай, бутун жамият хавфсизлиги ва барқарорлигига жиддий таҳдид солувчи омилга айланади.

Қонунчиликда гиёхванд моддалар билан боғлиқ ҳар қандай ноқонуний ҳаракатлар қатъий тақиқланган. Уларни ишлаб чиқариш, сақлаш, ташиш, тарқатиш ёки сотиш оғир жиноят сифатида баҳоланади ва жиддий жазоларга сабаб бўлади. Бу қатъийлик бежиз эмас. Чунки наркотик воситаларнинг ноқонуний айланмаси кўп ҳолларда бошқа турдаги жиноятлар, жумладан ўғирлик, зўравонлик, фирибгарлик ва уюшган жиноятчилик билан чамбарчас боғлиқ бўлади. Шу сабабли қонун бу соҳада муросасиз позицияни эгаллаб, жамиятни ҳимоя қилишга қаратилган қатъий чораларни белгилайди.

Гиёхванд моддалар инсон организмга кучли таъсир кўрсатиб, уни руҳий ва жисмоний қарамликка олиб келади. Бу жараён кўпинча оддий қизиқиш, “замонавийликка эргашиш” ёки “бир марта синаб кўриш” каби сабаблар билан бошланади. Аммо айнан шу “бир марта” инсон тақдирини тубдан ўзгартириб юбориши мумкин. Вақт ўтиши билан инсон ўз ҳапти-ҳаракатларини назорат қилиш қобилиятини йўқота бошлайди, фикрлаш доираси тораяди, ҳаётий қадриятлар ва мақсадлар ўзгариб кетади.

Бундай ҳолатда шахс нафақат ўзини, балки атрофидаги инсонларни ҳам оғир аҳволга солиб қўяди. Оилавий муносабатлар издан чиқади, ишонч йўқолади, меҳр-оқибат ўрнини тушунмовчилик ва низолар эгаллайди. Инсон жамиятдан узоқлашиб, ижтимоий фаолликдан четлашади. Энг ачинарлиси, гиёхвандлик кўп ҳолларда шахсни қонунбузарликка етаклайди. Наркотикка бўлган қарамликни қондириш учун маблағ топиш мақсадида турли жиноятларга қўл урилиши эса муаммони янада чуқурлаштиради ва унинг кўламини кенгайтиради.

Айниқса, бу иллатнинг ёшлар орасида тарқалиши катта ташвиш уйғотади. Ёшлиқдаги беғуборлик, юқори даражадаги таъсирчанлик ва муҳитга тез мослашиш хусусияти баъзан нотўғри қарорларга сабаб бўлади. Тенгдошлар таъсири, қизиқиш ёки нотўғри ахборот ёшларни хавфли йўлга бошлаши мумкин. Энг ёмони, айрим ёшлар гиёхвандликнинг нафақат соғлиққа, балки ҳуқуқий ва ижтимоий ҳаётга ҳам қандай салбий таъсир



кўрсатишини етарлича англамайди. Ваҳоланки, бир марта қилинган ноқонуний ҳаракат инсоннинг келажакдаги таълим олиши, касб эгаллаши ва жамиятда ўз ўрнини топишига жиддий тўсиқ бўлиши мумкин.

Гиёҳвандликка қарши курашиш фақат жазо чоралари билан чекланиб қолмаслиги лозим. Албатта, қонун устуворлиги таъминланиши шарт, аммо энг самарали йўл — бу олдини олишдир. Оилада соғлом муҳитни шакллантириш, фарзандларга тўғри тарбия бериш, улар билан доимий мулоқотда бўлиш жуда муҳим. Таълим муассасаларида тушунтириш ишларини кучайтириш, ёшларга ҳаётда тўғри йўл танлашни ўргатиш ҳам катта аҳамиятга эга.

Шунингдек, оммавий ахборот воситалари орқали кенг қамровли тарғибот ишларини олиб бориш, гиёҳвандликнинг асл моҳияти ва унинг оғир оқибатларини ёритиш жамият онгини шакллантиришга хизмат қилади. Ёшларни спортга, ижодга, фанга ва турли фойдали машғулотларга жалб қилиш эса уларни бўш вақтни мазмунли ўтказишга ундайди ва турли салбий таъсирлардан ҳимоя қилади.

Шуни унутмаслик керакки, гиёҳванд моддалар — бу нафақат соғлиқ учун хавф, балки қонунга очиқ-ойдин зид бўлган йўлдир. У инсоннинг бугунги кунини ҳам, эртанги келажagini ҳам хавф остига қўяди. Қонун эса ана шундай хавфларнинг олдини олиш, жамият тинчлиги, хавфсизлиги ва барқарорлигини таъминлаш учун хизмат қилади.

Ҳар бир инсон ўз танлови учун жавобгар. Соғлом фикр, мустаҳкам ирода ва онгли қарор — инсонни тўғри йўлдан адаштирмайдиган асосий омиллардир. Соғлом, маънавий бой ва қонунга итоаткор ҳаёт тарзи эса барқарор келажакнинг энг ишончли ва мустаҳкам пойдеворидир.



ЖАДАД МАТБУОТИДА ИШТИРОК ЭТГАН ДАСТЛАБКИ ХОТИН-ҚИЗЛАР: ЗУХРА АКЧУРА ГАСПИРАЛИ

Маҳзуна Камолова

*Ўзбекистон журналистика ва
оммавий коммуникациялар университети
таянч докторанти*

Аннотация: Мақолада ХХ аср охири ва ХХ аср бошларида Волга -Урал минтақаси жадид зиёлилари тажрибаси мисолида хотин-қизларнинг матбуотдаги илк иштироки таҳлил қилинган. Хусусан, “Таржимон” газетаси фаолиятида Зухра Гаспиралининг ўрни, таҳририят ва ташкилий ишларга қўшган ҳиссаси алоҳида манбаларга таяниб талқин этилган.

Калит сўзлар: жадид, матбуот, хотин-қизлар, таҳририят, Зухра гаспирали.

Хотин-қизларнинг матбуотда илк иштирок этиши ва унинг тарихий заруратини жадидчилик ҳаракати фаол бўлган ўлкалар мисолида таҳлил қиладиган бўлсак, Волга-Урал минтақасидаги татар зиёлилари, хусусан, ҳаракат етакчиси Исмоил Гаспирали оиласига тегишли аёллар алоҳида ўрин тутди. Жумладан, Зухра Акчура Гаспирали нафақат Исмоил Гаспиралининг рафиқаси, балки мустақил шахс сифатида ҳам Қрим жамиятидаги аёлларнинг ҳуқуқлари, таълимга бўлган муносабати ва фаоллигини шакллантиришда муҳим роль ўйнаган.

Тадқиқотчилар Зухра Гаспиралини Қрим миллий нашриёт саноати ривожига маънавий ва молиявий ҳисса қўшган биринчи мусулмон аёл сифатида тилга оладилар¹. У Исмоилбей билан бирга “Таржимон” газетаси босмаҳонасида фаолият юритган. Техник ишлар қаторида таҳририят ишларини ҳам бажарган. Зухра Гаспирали таъсирида “Таржимон” саҳифаларида аёллар масаласи етакчи ўринлардан бирини эгаллаган.

Зухра Асфандияровна Акчура 1862 йили Симбир вилоятининг Эски Тимошкино қишлоғида туғилган. У таниқли амалдор ва сармоядор Асфандияр Акчуранинг қизи. Оиласининг илғор фикрлилиги ва замонавий таълимга бўлган эътибори туфайли Зухра ёшлигиданоқ араб тили, рус тили, мусиқа ва адабиётни ўзлаштирди. Бу даврда аёлларга олий таълимга кириш чекланган бўлса-да, Акчуринлар оиласи қизлар таълимига жиддий эътибор қаратган.

1881 йилда Зухра Қримга сафар қилиб, у ерда Исмоил Гаспирали билан танишади ва кейинчалик турмуш қуришади. Унинг маърифий фаолияти айнан шу пайтдан фаоллашади. Гаспиралининг “Таржимон” газетаси фаолиятида

¹ Fahretdin R. B. Zehre hanim // Emel. – 1986. – № 153. – S. 13.



матнларни таҳрир қилиш, мақолалар таржимаси ва аёллар мавзусини ёритишда иштирок этади. Унинг турмуш ўртоғи билан ҳамфикрлиги ва фаол кўллаб-қувватлаши газетанинг 35 йил давомида мунтазам нашр қилинишини таъминлашда ҳисса қўшган. Ҳатто у ўз маблағлари ҳисобидан мактаб очиб, аёлларнинг билимга бўлган ҳуқуқини илгарилаш йўлида ҳаракат қилган.

Фахриддин Ризонинг “Зухра хоним” номли мақоласида ёзилишича: “Зухра Хоним шунчаки эрининг шериги ва иттифоқчиси эмас эди; у ўзининг кичик маҳрларини, шунингдек, барча олмос ва олтин тақинчоқларини газета нашр этиш ва ўқувчилар ва издошлар доирасини яратишга хайрия қилди. Беш-олти йил давомида у газетанинг барча ёзма ишларини, хусусан, “Таржимон”га обуна бўлиш, турли газеталарни қабул қилиш ва тарқатиш масалаларини якка ўзи ҳал қилди. Унинг иштироки ва саъй-ҳаракатлари туфайли “Таржимон” сўнмади. Гарчи Зухра Акчуринанинг номи босма нашрларда камдан-кам учрайдиган бўлса-да, ҳамма унинг таълим соҳасидаги улкан саъй-ҳаракатларини биларди”². Шунингдек у Зухра Гаспиралининг муаллифлик ва муҳаррирлик фаолиятини ҳам қуйидагича таърифлайди: “Туркий тилда эридан яхшироқ гапирадиган Зухра Хоним Россиянинг марказий минтақаларида яшовчи татарлар ва бошқирларга бағишланган мақолалар ёзиш ишининг асосий қисмини ўз зиммасига олди. Исмоил Бейнинг ўзи, мактабдаги дастлабки таълимидан ташқари, фақат рус тилида маълумотга эга эди, шунинг учун Зухра Хоним газетанинг татар тилидаги бўлимини таҳрир қилган”³. Яна бир татар зиёлиси Ғиёс Исҳоқий Зухра Гаспиралининг “Таржимон”даги фаолияти ҳақида шундай деб ёзади: “Улар “Таржимон”ни нашр эта бошлаганларида, Исмойил Бей ва Зухра Хоним навбат билан қадимги босмаҳонани қўлда бошқаришди. Чоп этилгандан сўнг, улар газетани ўзлари букладилар, манзилларни ўзлари ёздилар, маркаларни ёпиштирдилар ва почта бўлимига олиб боришди. Сонни олувчиларга юборгандан сўнг, икки фикрдош дўст келажакдаги сон учун материаллар тайёрлашни бошладилар. Исмойил Бейнинг ёзишича, Зухра Хоним матнни таҳрирлаб, уни тушунарлироқ қилишга ҳаракат қилди, сўзлар қўшди, тузатишлар киритди ва татар тилига таржима қилди...”⁴.

Демак, Исмоил Гаспирали аёлларнинг жамиятдаги мақомини юксалтириш ва уларнинг эркаклар билан тенг ҳуқуқларга эга бўлиши борасидаги ислохотчилик ғояларини аввало ўз яқинлари доирасида амалга оширган. Хусусан, у қизи Шафиқа Гаспиралини 1906 йилда турк-мусулмон мамлакатлари орасида илк бор нашр этилган аёллар журнали – “Алам-и Нисвон”га мудира этиб тайинлагани, бош муҳаррир сифатида журнал саҳифаларида эълон қилинган мақолаларни таҳрир қилиш, материаллар ёзиш ҳамда идора ишларини ташкил этиш каби вазифаларни бажаргани фикримиз далили.

² Fahretdin R. B. Zehre hanim // Emel. – 1986. – № 153. – S.13.

³ Ўша манба

⁴ Зухра Акчурина-Гаспринская (1862–1903): Онасиз миллат йўқ. <https://idmedina.ru/ramazan/?7103> (мурожаат санаси: 11.09.2005)



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

**DIDACTIC POTENTIAL OF DIGITAL EDUCATIONAL PLATFORMS
AND INTERACTIVE METHODS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING**

Shohista Eshquvatova Akbarovna

Faculty of English Language and Literature, 3rd year
Uzbekistan State World Languages University

Abstract. This article examines the didactic potential of digital educational platforms and interactive methods in foreign language teaching. It focuses on their role in improving students' motivation, communicative competence, and individualized learning. The study also analyzes the advantages and challenges of integrating digital technologies into the educational process. The results show that a balanced combination of traditional and digital methods leads to more effective learning outcomes.

Keywords: digital platforms, interactive methods, communicative competence, motivation

Аннотация В статье рассматриваются дидактические возможности цифровых образовательных платформ и интерактивных методов в обучении иностранным языкам. Особое внимание уделяется их влиянию на мотивацию обучающихся, развитие коммуникативной компетенции и индивидуализацию обучения. Также анализируются преимущества и трудности использования цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровые платформы, интерактивные методы, мотивация, коммуникативная компетенция.

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy tillarni o'qitishda raqamli ta'lim platformalari va interaktiv metodlarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ularning o'quvchilarning motivatsiyasi, kommunikativ kompetensiyasi va individual o'rganish jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va muammolari yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli platformalar, interaktiv metodlar, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya

Introduction In recent decades, the rapid development of digital technologies has significantly influenced all areas of human life, including education. The traditional model of teaching, which was mainly based on teacher-centered instruction and passive learning, is gradually being replaced by more interactive and student-centered approaches. This transformation is closely connected with the process of digitalization, which introduces new tools and methods into the educational system. Foreign language teaching is one of the fields where these changes are especially visible. Today, the main goal is not only to teach students grammar and vocabulary but also to develop their communicative competence. According to Passov (2010), communicative competence includes the ability to use



language effectively in real-life situations. This means that students should be able to speak, listen, read, and write in a meaningful context.

Digital educational platforms have become an important part of this process. They provide access to authentic materials such as videos, podcasts, and online exercises. These resources help create a more realistic language environment. At the same time, interactive teaching methods such as discussions, role plays, and project-based learning encourage students to actively participate in the learning process. The purpose of this article is to analyze the didactic potential of digital platforms and interactive methods in foreign language teaching and to examine their impact on students' motivation, communication skills, and overall learning effectiveness.

Literature Review. Many researchers have studied the role of digital technologies in education. Polat (2000) emphasizes that modern educational technologies help make the learning process more flexible and accessible. Similarly, Solovova (2008) highlights the importance of combining traditional and modern teaching methods to achieve better results.

Sysoev (2013) focuses on the use of information and communication technologies (ICT) in foreign language teaching. According to him, digital tools can create interactive learning environments and improve students' engagement. In addition, Galskova and Gez (2006) note that interactive methods play a key role in developing communicative competence. Another important aspect is the communicative approach, which is discussed by Passov (2010). This approach focuses on real communication and practical language use rather than memorization of rules. Interactive methods such as group discussions and role plays are essential for implementing this approach.

Despite many positive findings, some researchers also point out challenges. Bim (2007) mentions that not all teachers are ready to use digital technologies effectively. Zimnyaya (2004) also highlights the importance of considering psychological factors, such as students' motivation and cognitive load.

Methods. This study is based on a combination of theoretical and practical methods. First, a review of scientific literature was conducted to understand the main concepts related to digital education and foreign language teaching. Second, classroom observation was used to analyze how students interact with digital platforms and interactive methods. During the observation, attention was paid to students' participation, motivation, and communication. In addition, a small survey was conducted among students. The survey included several questions about their attitudes toward digital learning. Students were asked to evaluate their experience using a simple scale. The results were then analyzed to identify general trends. This mixed-method approach helped to provide a more complete understanding of the topic.

Results. The results of the study show that digital educational platforms have a strong positive impact on foreign language learning. One of the main benefits is increased motivation. Students are more interested in lessons that include multimedia content such as videos, quizzes, and interactive exercises. Another important result is the improvement of communicative competence. Students have



more opportunities to practice language skills in different ways. For example, they can listen to authentic audio materials, watch videos, and participate in online discussions. According to Sysoev (2013), this helps create a more realistic learning environment. Personalization is also an important advantage. Digital platforms allow students to learn at their own pace. They can repeat difficult topics and choose materials that match their level. This is especially useful in mixed-ability classes. Interactive methods also showed positive results. Students became more active and confident during discussions and group work. They were more willing to express their opinions and communicate in the target language.

Discussion. Although the results are mostly positive, several challenges were identified. One of the main problems is the lack of digital competence among teachers. Not all teachers are familiar with modern technologies, which can limit their effective use. As Bim (2007) states, teacher training is essential for successful integration of digital tools. Another issue is technical limitations. In some cases, students do not have access to stable internet or necessary devices. This creates inequality and affects the learning process.

There is also a risk of overusing technology. Students may become too dependent on digital tools and lose interest in face-to-face communication. This can negatively affect their speaking skills. To solve these problems, many experts recommend using blended learning. This approach combines traditional teaching methods with digital tools. According to Polat (2000), this balance helps achieve better learning outcomes.

Future Perspectives. Future research can focus on the use of advanced technologies such as artificial intelligence and adaptive learning systems. These tools can provide personalized learning experiences and improve efficiency. Virtual reality and augmented reality can also be used to create immersive language learning environments. This can help students practice real-life communication. Another important direction is teacher training. Teachers need to develop digital skills and learn how to integrate technology effectively into their lessons.

Conclusion. In conclusion, digital educational platforms and interactive methods have great potential in foreign language teaching. They improve motivation, support communicative competence, and allow personalized learning. However, their effectiveness depends on proper use, teacher training, and technical support. A balanced approach that combines traditional and modern methods is the most effective solution. Overall, digital technologies can significantly improve the quality of education if they are used wisely.

References

1. Polat, E. S. (2000). New pedagogical and information technologies.
2. Solovova, E. N. (2008). Methods of teaching foreign languages.
3. Passov, E. I. (2010). Communicative method in teaching.
4. Galskova, N. D., & Gez, N. I. (2006). Theory of teaching languages.
5. Sysoev, P. V. (2013). ICT in language teaching.
6. Bim, I. L. (2007). Theory and practice of teaching.
7. Zimnyaya, I. A. (2004). Pedagogical psychology.



A COMPARATIVE STUDY OF VERBLESS SENTENCES IN THE ENGLISH LANGUAGE AND THE UZBEK LANGUAGE

Hasanova Sevinch Hotam qizi

Teacher of Samarkand State Institute of Foreign Language

hasanovasevinc906@gmail.com

Abstract. This article presents a comparative study of verbless sentences in the English language and the Uzbek language. Verbless sentences are syntactic constructions in which no finite verb appears, yet the utterance remains meaningful and communicatively complete. Such structures occur in many languages, but their grammatical status, frequency, and function vary depending on language type. The purpose of this study is to examine the structural, functional, and stylistic characteristics of verbless sentences in English and Uzbek and to identify similarities and differences between them.

Keywords: verbless sentences, English language, Uzbek language, syntax, comparative linguistics, ellipsis, predication, sentence structure, interference.

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi fe'lsiz gaplarning qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan. Fe'lsiz gaplar — bu tarkibida kesim vazifasidagi fe'l bo'lmagan, biroq mazmun jihatdan to'liq va kommunikativ jihatdan yetarli bo'lgan sintaktik tuzilmalardir. Bunday konstruksiyalar ko'plab tillarda uchraydi, ammo ularning grammatik maqomi, qo'llanish chastotasi va funksiyasi til tipiga qarab farqlanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi fe'lsiz gaplarning strukturaviy, funksional va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: fe'lsiz gaplar, ingliz tili, o'zbek tili, sintaksis, qiyosiy tilshunoslik, ellipsis, predikatsiya, gap tuzilishi, interferensiya.

Аннотация. Данная статья представляет сравнительное исследование безглагольных предложений в английском и узбекском языках. Безглагольные предложения — это синтаксические конструкции, в которых отсутствует личная форма глагола, однако высказывание сохраняет смысловую и коммуникативную завершенность. Подобные структуры встречаются во многих языках, но их грамматический статус, частотность и функции варьируются в зависимости от типа языка. Цель данного исследования — проанализировать структурные, функциональные и стилистические особенности безглагольных предложений в английском и узбекском языках, а также выявить сходства и различия между ними.

Ключевые слова: безглагольные предложения, английский язык, узбекский язык, синтаксис, сравнительная лингвистика, эллипсис, предикация, структура предложения, интерференция.

I. Introduction



Language is the primary means of communication and expression of thought. One of the most important grammatical units of language is the sentence, which is generally understood as a complete expression of an idea, statement, question, or command. In traditional grammar, a sentence usually contains a subject and a predicate, with the predicate often realized through a finite verb. However, natural language use shows that many utterances do not always contain an overt verb. In such cases, the sentence may still remain meaningful and grammatically acceptable. These constructions are known as verbless sentences. A verbless sentence is a sentence in which no explicit finite verb is used, but the meaning of predication is understood through context, word order, intonation, or grammatical convention. Examples in English include: No problem! Wonderful day! You ready? What a surprise! Examples in Uzbek include: Men talaba. (I am a student.) Havo issiq. (The weather is hot.) U aqlli. (He/She is clever.) Hammasi tayyor. (Everything is ready.)

II. Methods

This study uses a qualitative comparative research design based on linguistic analysis. Descriptive Method - The descriptive method was used to identify and classify types of verbless sentences in both languages. Their grammatical forms and sentence patterns were analyzed. Comparative Method - The comparative method was applied to examine similarities and differences between English and Uzbek regarding: presence or absence of verbs; sentence patterns; communicative roles; grammatical acceptability. Contextual Analysis: Since many verbless constructions depend on situation and discourse context, contextual interpretation was necessary. Examples: Ready? = Are you ready? No chance! = It is impossible / Absolutely not.

III. Results

Verbless Sentences in English: English is generally a verb-centered language. Therefore, verbless sentences are relatively limited and often stylistically marked. **Exclamatory Sentences:** These express emotions, surprise, admiration, or disappointment. Examples: What a pity! Wonderful! Amazing view! What nonsense! **Short Responses:** These are common in conversation. Examples: No problem. No idea. Maybe later. Not now. **Elliptical Questions:** In spoken English, auxiliary verbs may be omitted. Examples: You ready? Coming? Anything else? All okay? **Newspaper Headlines:** Verbs are often omitted to save space and create impact. Examples: New Crisis in Europe, President Under Pressure, Economic Growth **Stylistic Effect:** English verbless sentences create brevity, speed, emotional tone, and dramatic effect. Verbless Sentences in Uzbek: In Uzbek, verbless sentences are much more common and grammatically normal. Nominal Sentences Examples:

V. Conclusion

This study has shown that verbless sentences occur in both English and Uzbek, but their grammatical role and frequency differ significantly. In English, verbless sentences are limited to informal speech, headlines, emotional expressions, and elliptical constructions. They are usually derived from full verbal sentences. In Uzbek, verbless sentences are a regular and productive part of grammar, especially in present-tense nominal and descriptive sentences.



References:

1. Qizi H. S. H., Tulenovna A. C. A SYNTAGMATIC AND PARADIGMATIC ANALYSIS OF VERBLESS AND INCOMPLETE (ELLIPTICAL) SENTENCES //Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. – 2026. – Т. 1. – С. 588-591.
2. Qizi U. G. A., Qizi H. S. H. COMPARATIVE ANALYSIS OF TRADITIONAL AND INNOVATIVE APPROACHES IN LANGUAGE TEACHING //Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. – 2026. – Т. 1. – С. 1100-1104.
3. Qizi X. Q. G., Qizi H. S. H. LANGUAGE TEACHING APPROACHES: HISTORICAL AND TRADITIONAL PERSPECTIVES //Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. – 2026. – Т. 1. – С. 805-809.
4. Hasanova S. THE ROLE OF GRAMMATICAL CATEGORIES IN COMPARATIVE ANALYSIS //International Conference on Science, Education & Law. – 2025. – Т. 1. – №. 3 part 2. – С. 205-208.
5. Hasanova S., Otebekova A. THE INFLUENCE OF SOCIAL, CULTURAL, AND EDUCATIONAL CONTEXTS ON ENGLISH LANGUAGE LEARNING IN EFL SETTINGS //Asian journal of scientific research and innovations. – 2026. – Т. 1. – №. 1. – С. 162-165.
6. Musaeva M. THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON ENGLISH AND RUSSIAN LITERATURE //Asian journal of technology and applied sciences. – 2026. – Т. 1. – №. 1. – С. 86-89.
7. Musaeva M. STYLISTIC DEVICES IN ENGLISH AND RUSSIAN LITERARY TEXTS: A COMPARATIVE STUDY //Asian journal of scientific research and innovations. – 2026. – Т. 1. – №. 2. – С. 241-245.
8. Ulugbekovna M. M. ENHANCING COMMUNICATIVE SKILLS IN NON-PHILOLOGICAL DEPARTMENTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH IN EDUCATION, TECHNOLOGY AND MANAGEMENT. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 234-242.
9. Musaeva Malika Ulugbekovna, Dinapa Turgunbaevna Teshebaeva THE ROLE OF FIGURATIVE LANGUAGE IN ENGLISH AND RUSSIAN NARRATIVES // Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. 2026. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-figurative-language-in-english-and-russian-narratives>
10. Musaeva Malika Ulugbekovna, Anarkul Dzhumabekovna Mankeeva DIGITAL APPROACHES TO COMPARATIVE LITERATURE STUDIES // Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. 2026. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/digital-approaches-to-comparative-literature-studies>



SYNTAGMATIC AND PARADIGMATIC VARIABILITY IN NON-FINITE SENTENCE STRUCTURES

Hasanova Sevinch Hotam qizi

Teacher of Samarkand State Institute of Foreign Language

hasanovasevinc906@gmail.com

Abstract This study investigates syntagmatic and paradigmatic variability in non-finite sentence structures within the framework of structural and functional linguistics. Non-finite constructions, including infinitives, gerunds, and participles, play a significant role in organizing sentence structure despite lacking finite verb forms. The research aims to analyze how these structures function within linear (syntagmatic) combinations and how they serve as alternatives within the system of grammatical choices (paradigmatic relations).

Keywords: non-finite structures, syntagmatic relations, paradigmatic relations, syntax, functional linguistics, sentence structure, substitution, variability.

Annotatsiya Mazkur tadqiqot nofe'l (non-finite) gap tuzilmalarida sintagmatik va paradigmatic o'zgaruvchanlikni strukturaviy va funksional tilshunoslik doirasida o'rganadi. Infinitiv, gerundiy va participial konstruktsiyalar kabi nofe'l shakllar fe'lning shaxs-son shakliga ega bo'lmasada, gap tuzilishini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotning maqsadi ushbu tuzilmalarning sintagmatik (chiziqli birikish) va paradigmatic (o'rin bosish imkoniyati) munosabatlardagi funksiyasini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda yozma va og'zaki nutq namunalariga asoslangan sifatli tahlil usuli qo'llanildi.

Kalit so'zlar: nofe'l tuzilmalar, sintagmatik munosabatlar, paradigmatic munosabatlar, sintaksis, funksional tilshunoslik, gap tuzilishi, o'rin bosish, o'zgaruvchanlik.

Аннотация Данное исследование посвящено изучению синтагматической и парадигматической вариативности нефинитных (безличных) синтаксических конструкций в рамках структурной и функциональной лингвистики. Нефинитные формы, такие как инфинитив, герундий и причастные конструкции, играют важную роль в организации предложения, несмотря на отсутствие личной формы глагола. Цель исследования — проанализировать функционирование этих структур в синтагматических (линейных) сочетаниях и их роль как альтернативных форм в системе грамматических выборов (парадигматические отношения).

Ключевые слова: нефинитные конструкции, синтагматические отношения, парадигматические отношения, синтаксис, функциональная лингвистика, структура предложения, замещение, вариативность.

Introduction Non-finite sentence structures represent an important area of study in modern linguistics, particularly within the fields of syntax and functional grammar. These structures, which include infinitive, gerund, and participial



constructions, lack finite verb forms but still contribute significantly to meaning-making in discourse. From a structuralist perspective, especially within the traditions of Ferdinand de Saussure, language is understood through two key dimensions: syntagmatic relations (linear combinations of elements) and paradigmatic relations (substitutional choices within a system). While much research has focused on finite clauses, less attention has been given to how non-finite constructions function within these two axes. This study aims to explore the variability of non-finite sentence structures from both syntagmatic and paradigmatic perspectives, analyzing how they operate within sentence structure and how alternative forms may influence meaning and style.

Methods This research employs a qualitative descriptive approach grounded in structural and functional linguistic frameworks. Data were collected from a variety of sources, including literary texts, academic writing, and spoken discourse samples in English. Non-finite constructions such as infinitive phrases (e.g., *to read a book*), gerund phrases (e.g., *reading a book*), and participial clauses (e.g., *having read the book*) were identified and categorized. The analysis focused on two main aspects: (1) syntagmatic relations, examining how these structures combine with other sentence elements, and (2) paradigmatic relations, analyzing how non-finite forms can substitute for finite clauses or other grammatical constructions. Comparative examples were also considered to highlight variation and functional differences.

Results The findings reveal that non-finite sentence structures demonstrate considerable variability along both syntagmatic and paradigmatic dimensions. Syntagmatically, non-finite constructions show flexibility in positioning, functioning as subjects, objects, complements, and adverbial modifiers within a sentence. For example, infinitive phrases often appear after verbs (*She wants to leave*), while gerunds can function as subjects (*Reading improves knowledge*). Participial clauses frequently provide additional contextual information (*Walking through the park, he felt relaxed*). From a paradigmatic perspective, non-finite structures often serve as alternatives to finite clauses, allowing speakers and writers to condense information and achieve stylistic variation. For instance, a finite clause (*When he finished the task, he left*) can be replaced with a participial clause (*Having finished the task, he left*). This substitution reflects a shift in form without significant loss of meaning, though it may alter emphasis, formality, or cohesion. The results also indicate that non-finite structures contribute to textual economy and are more prevalent in written and formal discourse.

Discussion The analysis highlights the importance of considering both syntagmatic and paradigmatic dimensions when studying non-finite sentence structures. Syntagmatic variability demonstrates how these constructions integrate into sentence structure and interact with surrounding elements, while paradigmatic variability reveals the range of alternative forms available within the grammatical system. These findings support the view that non-finite constructions are not merely reduced forms but are functionally significant choices that reflect stylistic, pragmatic, and cognitive considerations.



References:

1. Qizi H. S. H., Tulenovna A. C. A SYNTAGMATIC AND PARADIGMATIC ANALYSIS OF VERBLESS AND INCOMPLETE (ELLIPTICAL) SENTENCES //Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. – 2026. – Т. 1. – С. 588-591.
2. Qizi U. G. A., Qizi H. S. H. COMPARATIVE ANALYSIS OF TRADITIONAL AND INNOVATIVE APPROACHES IN LANGUAGE TEACHING //Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. – 2026. – Т. 1. – С. 1100-1104.
3. Qizi X. Q. G., Qizi H. S. H. LANGUAGE TEACHING APPROACHES: HISTORICAL AND TRADITIONAL PERSPECTIVES //Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. – 2026. – Т. 1. – С. 805-809.
4. Hasanova S. THE ROLE OF GRAMMATICAL CATEGORIES IN COMPARATIVE ANALYSIS //International Conference on Science, Education & Law. – 2025. – Т. 1. – №. 3 part 2. – С. 205-208.
5. Hasanova S., Otebekova A. THE INFLUENCE OF SOCIAL, CULTURAL, AND EDUCATIONAL CONTEXTS ON ENGLISH LANGUAGE LEARNING IN EFL SETTINGS //Asian journal of scientific research and innovations. – 2026. – Т. 1. – №. 1. – С. 162-165.
6. Musaeva M. THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON ENGLISH AND RUSSIAN LITERATURE //Asian journal of technology and applied sciences. – 2026. – Т. 1. – №. 1. – С. 86-89.
7. Musaeva M. STYLISTIC DEVICES IN ENGLISH AND RUSSIAN LITERARY TEXTS: A COMPARATIVE STUDY //Asian journal of scientific research and innovations. – 2026. – Т. 1. – №. 2. – С. 241-245.
8. Ulugbekovna M. M. ENHANCING COMMUNICATIVE SKILLS IN NON-PHILOLOGICAL DEPARTMENTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH IN EDUCATION, TECHNOLOGY AND MANAGEMENT. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 234-242.
9. Musaeva Malika Ulugbekovna, Dinara Turgunbaevna Teshebaeva THE ROLE OF FIGURATIVE LANGUAGE IN ENGLISH AND RUSSIAN NARRATIVES // Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. 2026. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-figurative-language-in-english-and-russian-narratives>
10. Musaeva Malika Ulugbekovna, Anarkul Dzhumabekovna Mankeeva DIGITAL APPROACHES TO COMPARATIVE LITERATURE STUDIES // Иновационные методики в обучении иностранным языкам: глобальные тенденции и опыт университетов шёлкового пути. 2026. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/digital-approaches-to-comparative-literature-studies>



THE IMPACT OF SOCIAL MEDIA ON STUDENTS' ACADEMIC WRITING SKILLS

Student: Sharifjonova Shodiya Shuxrat Qizi

Uzbekistan State World Languages University
Faculty of Foreign Languages and Literature 3rd year

Email: sharifjonovashodiya@gmail.com

Scientific supervisor: Xamidova Madinabonu Abduboriy qizi

Head teacher at Uzbekistan State World Languages University

Abstract (English) In recent years, social media platforms have gained a dominancy of communication, particularly among university students, significantly influencing their language use and writing practices.

This study takes a look into the impact of social media usage on students' academic writing skills, with a focus on grammar, vocabulary, and coherence. The research tries to solve the question that informal language patterns commonly used in digital communication may negatively affect formal academic writing. A mixed-method approach was introduced, including surveys, questions and analysis of students' written assignments. The findings indicate that frequent use of social media is associated with the use of informal expressions, shortenings, grammatical inaccuracies, and reduced coherence in academic texts. However, reliance to different online content may also effect language learning and communicative flexibility. The study highlights the importance of integrating digital technologies into academic writing instruction.

Keywords: social media, academic writing, university students, digital communication, grammar, coherence.

Annotatsiya: So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa, universitet talabalari orasida asosiy muloqot vositasiga aylanib, ularning til ishlatishi va yozish ko'nikmalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqot ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning talabalarning akademik yozuv ko'nikmalariga, xususan, grammatika, lug'at boyligi va matnning mantiqiy bog'liqligiga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqotda raqamli muloqotda qo'llaniladigan norasmiy til birliklarining rasmiy yozuvga ta'siri ko'rib chiqiladi. Aralash metod asosida o'tkazilgan tadqiqotda so'rovnomalar va yozma ishlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan tez-tez foydalanish norasmiy iboralar, grammatik xatolar va izchillikning pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga, turli onlayn manbalar til sezgirligini oshirishi mumkin. Tadqiqot akademik yozuvni o'qitishda raqamli savodxonlikni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, akademik yozuv, talabalar, grammatika, izchillik

Аннотация (на русском языке) В последние годы социальные сети стали одной из основных форм коммуникации, особенно среди студентов,



оказывая значительное влияние на их письменные навыки. Данное исследование направлено на изучение влияния социальных сетей, на академическое письмо студентов, с акцентом на грамматику, лексику и связность текста. В работе рассматривается проблема влияния неформального цифрового общения на формальное письмо. Использован смешанный метод, включающий анкетирование и анализ письменных работ студентов. Результаты показывают, что частое использование социальных сетей связано с увеличением количества языковых ошибок и снижением связности текста. Вместе с тем онлайн-контент может способствовать развитию языковой компетенции. Подчеркивается важность развития цифровой грамотности в обучении.

Ключевые слова: социальные сети, академическое письмо, студенты, грамматика, связность.

Introduction

Social media has become an integral part of modern life, we all are dependent on the social media in one way or another, especially among university students. Platforms such as Instagram, Telegram, and Tik Tok are widely used for communication, entertainment, and academic purposes. While these platforms provide access to information and facilitate interaction, they also impact on how students use language in both informal and formal contexts. In the context of technological advancements, language use is continuously evolving and engaging. Online communication often prioritizes speed, convenience, and being brief and clear, which leads to the frequent use of abbreviations, emojis, and simplified grammatical structures or GIFs. Although such features are suitable for informal interaction, they may not be suitable with the conventions of academic writing, which requires clarity, coherence, and appropriate vocabulary usage and grammatical accuracy. Academic writing demands a formal tone, logical organization, and appropriateness to linguistic norms. However, the informal nature of communication on social media may negatively affect students' ability to maintain and follow these standards. This study learns the extent of this influence and possible solutions for students' academic performance.

Literature Review

Previous research has learned the relationship between social media use and academic performance. Junco (2012) found that a frequent use of social networking sites can negatively impact students' academic outcomes. Crystal (2011) explains that internet language introduces new linguistic features, such as abbreviations, acronyms, and nonstandard grammar, which may influence traditional writing practices. Rosen (2012) argues that daily engagement with digital technologies affects attention span and cognitive processes, potentially reducing students' ability to produce structured and coherent texts. Similarly, Carr (2010) suggests that frequent internet use may alter deep reading and writing habits. On the other hand, some scholars highlight the benefits of digital communication. Boyd (2014) emphasizes that online interaction can enhance social and communicative skills, while Hyland (2003) notes that exposure to diverse texts can support language



development. Warschauer (2010) also points out that digital tools can improve writing skills when used effectively in educational settings. These perspectives indicate that social media has both positive and negative effects, depending on how it is used, how often it is used and for what purpose it is used.

Research Question

To what extent does frequent use of social media influence the grammar, vocabulary, and coherence of university students' academic writing?

Methodology

This study used a mixed-method approach to provide a comprehensive analysis. A survey was conducted among 100 undergraduate students in the Uzbekistan State World Language university to examine their frequency and patterns of social media use. The participants, aged between 18 and 22, represented different academic disciplines. Each student was given a link which gives access to Google sheets. And each student was asked to share their own personal experience on learning language and using it in formal education. In addition, samples of students' academic writing were collected and analyzed. The evaluation focused on grammatical accuracy, vocabulary usage, coherence, and overall organization. Both quantitative data (survey results) and qualitative analysis (writing samples) were used to identify patterns and relationships between social media use and writing performance.

Findings and Discussion

The findings reveal that students who frequently use social media tend to use informal language into their academic writing. Common issues include the use of abbreviations, slang expressions, and non-standard grammatical structures. Many students also demonstrate difficulties with punctuation and sentence organization, which reduces the clarity and coherence of their texts. This mistake can be explained by the excessive use of informal communication in digital environments, where speed and efficiency are prioritized over accuracy. As a result, students may unconsciously transfer these habits into formal writing contexts. At the same time, the study identifies some positive effects. Exposure to diverse online content can enhance students' vocabulary and increase their awareness of different communication styles. This suggests that social media is not entirely harmful but requires guided and balanced use. These findings highlight the importance of teaching students how to differentiate between informal and formal language use.

Conclusion

In conclusion, social media has a significant impact on students' academic writing skills. With the right approaches and the guidance of the teacher, students can apply their knowledge in formal ways, and they use social media for their own personal growth. While it may contribute to the use of informal language and grammatical inaccuracies, it can also support language development when used appropriately. Therefore, educators should integrate digital literacy into academic writing instruction and provide clear guidance on maintaining formal writing standards. By developing these skills, students can benefit from social media without compromising their academic performance. Future research could further explore the long-term effects of digital communication on writing proficiency and



investigate effective teaching strategies for improving academic writing in the digital age.

References

- Carr, N. (2010). *The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains*. Crystal, D. (2011). *Internet Linguistics: A Student Guide*.
Junco, R. (2012). *Social media use and academic performance. Computers in Human Behavior*.
Rosen, L. D. (2012). *iDisorder: Understanding Our Obsession with Technology*.
Boyd, D. (2014). *It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens*. Hyland, K. (2003). *Second Language Writing*.
Warschauer, M. (2010). *New tools for teaching writing*.



CHET TILI O‘QITUVCHISINING KASBIY-METODIK LEKSIKASI TASNIFI

Tog‘ayeva Mahfuza Abdunazarovna
Innovatsion texnologiyalar universiteti
mahfuza_123@mail.ru

Kirish: Globallashuv sharoitida chet tillarini o‘qitish ta’limning muhim yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayonda chet tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi, nutq madaniyati va metodik savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi. Kasbiy-metodik leksika o‘qituvchining pedagogik faoliyatida qo‘llanadigan metodik, kommunikativ va baholashga oid terminlar majmuasini anglatadi. Ushbu leksika darsni samarali tashkil etish, o‘quvchilar bilan to‘g‘ri pedagogik muloqot o‘rnatish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Lingvodidaktik terminlar, pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarga oid birliklar kasbiy-metodik leksikaning asosini tashkil etadi. Mazkur maqolada chet tili o‘qituvchisining kasbiy-metodik leksikasi va uning tasnifi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy leksika, metodik leksika, chet tili o‘qituvchisi, pedagogik terminologiya, kommunikativ metod, lingvodidaktika, ta’lim texnologiyasi, metodik kompetensiya.

Chet tili o‘qituvchisining kasbiy-metodik leksikasi mohiyati

Kasbiy-metodik leksika pedagogning kasbiy faoliyatida qo‘llanadigan maxsus til birliklari tizimidir. U darsni tashkil etish, metodlarni tushuntirish va o‘quv jarayonini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Chet tili o‘qituvchisining metodik leksikasi lingvistik hamda pedagogik-metodik bilimlar asosida shakllanadi. Lingvistik birliklar tilning fonetik, grammatik va leksik jihatlarini ifodalasa, metodik birliklar ta’lim usullari va baholash jarayonlarini anglatadi. “Communicative approach”, “feedback”, “pair work” kabi terminlar shular jumlasidandir. Kasbiy-metodik leksika o‘qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirib, pedagogik muloqot samaradorligini oshiradi.

Kasbiy-metodik leksikaning tasnifi

Chet tili o‘qituvchisining kasbiy-metodik leksikasi bir necha mezonlarga ko‘ra tasniflanadi.

1. Mazmuniga ko‘ra

Lingvodidaktik terminlar: grammatika, fonetika, semantika, kommunikativ kompetensiya. \n- Pedagogik-metodik terminlar: interaktiv metod, baholash, motivatsiya, refleksiya. \n- AKT bilan bog‘liq terminlar: onlayn platforma, multimedia, blended learning.

2. Vazifasiga ko‘ra



Tushuntiruvchi birliklar: “repeat after me”, “listen carefully”.\n- Nazorat qiluvchi birliklar: test, quiz, feedback.\n- Rag‘batlantiruvchi birliklar: “excellent”, “well done”.

3. Qo‘llanish doirasiga ko‘ra

Umumpedagogik leksika: dars, metod, ta‘lim.\n- Maxsus metodik leksika: speaking activity, role play, pronunciation drill.

Kasbiy-metodik leksikaning pedagogik ahamiyati

Kasbiy-metodik leksika o‘qituvchining professional kompetensiyasini oshirib, dars samaradorligini ta‘minlaydi. U pedagogik muloqotni kuchaytirib, seminar va treninglarda ilmiy fikrlarni aniq ifodalashga yordam beradi. Shu bois metodik leksikani rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, chet tili o‘qituvchisining kasbiy-metodik leksikasi pedagogik faoliyatning muhim qismi bo‘lib, o‘qituvchining metodik va kommunikativ kompetensiyasini namoyon etadi. U lingvodidaktik, pedagogik va texnologik terminlardan tashkil topadi. Zamonaviy ta‘limda metodik leksikani boyitish va undan samarali foydalanish pedagoglarni tayyorlashning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
2. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2013.
3. Passov E. I. Kommunikativ metod asoslari. – Moskva: Prosvesheniye, 1991.
4. Richards J. C., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
5. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2007.
6. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Longman, 2001.
7. Safarova R. Pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llash. – Toshkent, 2018.
8. Ismoilov K. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2016.
9. Nurmonov A. Lingvistika va tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2010.
10. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2015.



SUN'IIY INTELLEKT VA TURISTIK DISKURS TARJIMASI

Madiyorova Madinabonu Azimboy qizi

Ma'mun universiteti o'qituvchisi

Bozorboyeva Sevinch Javlonbek qizi

Ma'mun universiteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Tezisdagi turistik diskurs tarjimasida sun'iy intellekt vositalari va olim-tarjimon hamkorligining dolzarb muammolari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt yordamida yaratilgan tarjimalarda lingvokulturologik aniqlik, pragmatik moslik va terminologik izchillikni ta'minlash yo'llarini aniqlashdan iborat. Qiyosiy va diskursiv tahlil asosida inson nazorati bilan qo'llangan gibriddagi turistik matnlarning axborotiy va persuziv samaradorligini oshirishi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: turistik diskurs, sun'iy intellekt, tarjima, pragmatik moslik, lingvokulturologiya, terminologiya, gibriddagi model

Аннотация. В тезисе рассматриваются актуальные проблемы применения инструментов искусственного интеллекта и сотрудничества ученых и переводчиков при переводе туристического дискурса. Цель исследования — определить пути обеспечения лингвокультурной точности, прагматической адекватности и терминологической последовательности в AI-поддерживаемом переводе. Сравнительный и дискурсивный анализ показал, что гибридная модель с обязательным человеческим контролем повышает информативную и персуазивную эффективность туристических текстов.

Ключевые слова: туристический дискурс, искусственный интеллект, перевод, постредактирование, прагматическая адекватность, лингвокультурология, терминология, гибридная модель

Abstract. The thesis examines current issues in using artificial intelligence tools and scholar-translator collaboration in the translation of tourism discourse. The aim is to identify ways of ensuring linguocultural accuracy, pragmatic adequacy, and terminological consistency in AI-assisted translation. Comparative and discourse analysis shows that a hybrid model with mandatory human oversight improves the informative and persuasive effectiveness of tourism texts.

Keywords: tourism discourse, artificial intelligence, translation, post-editing, pragmatic adequacy, linguocultural studies, terminology, hybrid model

Kirish

Raqamli turizm, ko'p tilli platformalar va generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining tez kengayishi turistik diskurs tarjimasini tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biriga aylantirib ulgurdi. Bugun sayohat portallari, ziyorat yo'riqnomalari, audio-gidlar, mehmonxona tavsiflari va mobil ilovalardagi kontent bir vaqtning o'zida tez, aniq va madaniy jihatdan mos tarjimani talab qiladi. Biroq



turistik matn shunchaki axborot bermaydi, balki u manzilni jozibador ko'rsatadi, tashrif xulqini boshqaradi, ishonch uyg'otadi va madaniy qiyofani shakllantiradi. Shu sababli bunday diskursni o'zbek tilidan chet tiliga o'g'irishda sun'iy intellekt vositalarining tezkorligi bilan inson tarjimon va tadqiqotchining lingvokulturologik sezgirligini uyg'unlashtirish masalasi nihoyatda muhimdir.

Masala bir necha ilmiy maktablar tomonidan turlicha yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lib mahalliy va O'zbekiston tadqiqotlarida G'. Salomov, I. G'afurov, O. Mo'minov, N. Qambarov singari olimlar tarjimada adekvatlik, milliy-madaniy birliklar va uslubiy moslik masalalarini nazariy asoslab berganlar [1–4]. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm terminologiyasi, ekoturizm leksikasi va inglizcha–o'zbekcha turizm atamalarining polisemiyasi bo'yicha ham amaliy ishlar paydo bo'ldi [5–7]. MDH makonida V. Komissarov, L. Latyshev, S. Vlahov va S. Florin ishlari realiyalar, tarjima transformatsiyalari va muqobillik muammolarini tizimlashtirganligi bilan ahamiyat kasb etadi [8–10]. Osiyo tadqiqotlarida turizm veb-saytlari tarjimasi, sun'iy intellekt va mashina tarjimasi asosida kontentni moslashtirish, xususan Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo olimlari ishlarida tez rivojlanmoqda [11–13]. Yevropada turistik reklama pragmatikasi, SI asosidagi turizm tarjimasi va foydalanuvchi qabuliga oid tadqiqotlar faol olib borilmoqda [14–16]. Jahon miqyosida D. Kelly, D. Kenny, D. O'Hagan, D. Moorkens, M. Baker, P. Newmark, L. Venuti kabi olimlar sun'iy intellekt sharoitida tarjima amaliyoti, post-editing etikasi va madaniy moslik muammolarini chuqur muhokama qilganlar [17–22]. Bu manbalar turistik diskurs tarjimasida SI vositalari mustaqil yechim emas, balki ilmiy tahlil bilan birlashgandagina samarali bo'lishini ko'rsatadi.

Mazkur tezisning maqsadi turistik diskursni o'zbek tilidan chet tiliga tarjima qilishda sun'iy intellekt vositalari va olim–tarjimon hamkorligining samarali modelini tavsiflashdan iboratdir. Tadqiqot materiali sifatida turistik portal, ziyorat tavsifi, reklama matni va qisqa gid matnlaridan tanlangan namunalardan foydalaniladi. Ilmiy ish doirasida qiyosiy tahlil, diskursiv-pragmatik talqin, lingvokulturologik sharhlash va tahrirlash kuzatuv usullari qo'llaniladi. Dastlab matnlar SI vositalari yordamida tarjima qilinib, so'ng ularning leksik aniqligi, pragmatik ta'siri, madaniy izohi va terminologik izchilligi mutaxassis ko'rigidan o'tkaziladi.

Olinadigan natijalar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt vositalari turistik diskursda uch jihatda foydali deb hisoblanadi, ya'ni, birinchidan, katta hajmdagi ma'lumotni tez tarjima qilishi, ikkinchidan, terminlarning dastlabki variantlarini taklif etishi, uchinchidan, parallel matnlar asosida uslubiy soddalashtirish imkonini bera olishidadir. Biroq aynan turistik diskursga xos birliklarda SI ko'pincha xatoga yo'l qo'yadi. Masalan, mahalla, ziyoratgoh, ayvon, iftor, tabarruk joy, ichan-qal'a kabi birliklar ko'pincha so'zma-so'z yoki haddan tashqari umumlashtirilgan shaklda beriladi. Natijada matnning persuaziv ohangi, madaniy fon va manzilning lokal qiyofasi zaiflashadi. Shuningdek, SI ba'zan turistik reklama matnidagi rag'batlantiruvchi ohangni yo'qotadi yoki aksincha, ortiqcha reklama uslubini kuchaytiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, eng yaxshi natija SI ishlab bergan dastlabki variantni tarjimon va soha olimi birgalikda tahrir qilgan holatidagina kuzatiladi.



Bunday gibrid modelda tarixiy-real birliklarga qisqa izoh qo‘shiladi, diniy birliklarda pragmatik ehtiyotkorlik saqlanadi, terminlar esa maqsadli auditoriyaga mos holda standartlashtiriladi.

Turistik diskurs tarjimasida zamonaviy hamkorlik modeli uch tomonlama tuzilishga ega bo‘lishi kerak, ya’ni SI vositasi, professional tarjimon va mavzu bo‘yicha tadqiqotchi. SI tezkor ishlov beradi, tarjimon tabiiylik va pragmatik moslikni ta’minlaydi, olim esa lingvokulturologik izoh, tarixiy aniqlik va terminologik me’yorni belgilaydi. Ayniqsa, ziyorat va madaniy merosga oid matnlarda bunday hamkorlik zarur, chunki noto‘g‘ri tarjima nafaqat til xatosiga, balki madaniy noto‘g‘ri talqinga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda SI bilan ishlash ko‘nikmasi oddiy texnik malaka sifatida emas, balki ilmiy filtrlash va korpus asosida tekshirish madaniyati sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuv tarjimon tayyorlash tizimida ham, turistik kontent ishlab chiqarishda ham dolzarbdir. Ayni shuning uchun ham quyidagicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

- 1) Turistik matnlar uchun o‘zbekcha–inglizcha terminologik mini-korpus yaratish;
- 2) SI vositalaridan olingan tarjimalarni majburiy ravishda lingvokulturologik post-editingdan o‘tkazish;
- 3) ziyorat, gastronomiya va me’moriy meros birliklari uchun standart izohli ekvivalentlar bazasini tuzish;
- 4) tarjimonlar va tadqiqotchilar uchun SI savodxonligi bo‘yicha qisqa modullar joriy etish;
- 5) turistik portallar va muzey matnlarini nashr etishdan oldin ekspert tekshiruv tizimini yo‘lga qo‘yish. Bu tavsiyalar amaliyotga joriy etilsa, o‘zbek turistik kontentining xalqaro maydondagi sifati va ishonchligi oshadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, turistik diskurs tarjimasida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish muqarrar jarayondir, ammo sifatli natija faqat insoniy ilmiy nazorat bilan ta’minlanadi. Tarjimon va olimning hamkorligi SI ishlab bergan matnni tezkor, aniq va madaniy jihatdan mos tarjimaga aylantiradi. Demak, zamonaviy tarjimashunoslik uchun asosiy vazifa SI ni tarjimon o‘rniga qo‘yish emas, balki uni ilmiy tahlil, post-editing va terminologik standartlashtirish bilan uyg‘unlashtirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alikulova, M. N. (2025). Typology and lexicographic interpretation of tourism terms in Uzbek and English languages.
2. Abdukhaliyeva, G. (2024). Tourist discourse: Linguistic features (Using the example of an Uzbek language newspaper “Milliy Tiklanish”).
3. G‘afurov, I., Mo‘minov, O., & Qambarov, N. (2012). Tarjima nazariyasi. Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni.
4. Salomov, G‘. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Translation and lexicographic features of ecotourism terminology in English and Uzbek languages. (2025).



6. Polysemy in tourism-related terminology in English and Uzbek languages. (2025).
7. Digital transformation and tourism terminology in English and Uzbek. (2025).
8. Komissarov, V. N. (1990). *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)*. Moskva: Vysshaya shkola.
9. Latyshev, L. K. (2005). *Tekhnologiya perevoda*. Moskva: Akademiya.
10. Vlahov, S., & Florin, S. (1980). *Neperevodimoe v perevode*. Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniya.
11. Research on tourism website content translation strategy based on machine translation and artificial intelligence. (2024).
12. Rancati, E., Abashidze, I., & d'Agata, A. (2025). AI-based machine translations in tourism and hospitality: An exploratory study of travelers' perceptions and future challenges.
13. Kefala, S. (2021). The pragmatics of translated tourism advertising.
14. Poli, F. (2025). AI-assisted translation and the systematisation of multi-word units and cultural proper names in tourism discourse.
15. Kenny, D. (2022). Machine translation for everyone? Empowerment and constraints in the age of AI.
16. Muñoz Martín, R. (2025). *Translation Studies in the Age of Artificial Intelligence*.
17. O'Hagan, M. (2024). The impact of artificial intelligence on language translation: A review.
18. Moorkens, J. (2024). Artificial intelligence in translation studies: Benefits, challenges and future directions.
19. Baker, M. (2018). In *Other Words: A Coursebook on Translation*.
20. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*.
21. Venuti, L. (2018). *The Translator's Invisibility*.
22. Sousa, A. E., et al. (2024). The use of artificial intelligence systems in tourism and hospitality.



The Effects of Adolescent Employment: Advantages, Challenges, and Parental Views A Review of Research on Youth Work and Safety

Student: Abdisattorova Xonzoda Akrom qizi

Uzbekistan State World Languages University
Faculty of Foreign Languages and Literature 3rd year

Email: khonzoda83@gmail.com

Scientific supervisor: Xamidova Madinabonu Abduboriy qizi

head teacher at Uzbekistan State World Languages University

The Impact of Adolescent Employment: Benefits, Risks, and Parental Perceptions

Abstract. The issue of adolescent employment remains widely discussed because of its potential to support development as well as its possible negative consequences. This article relies on findings from Mortimer's longitudinal Youth Development Study, research on how parents perceive adolescent work (Usher et al., 2014), and international labour standards to offer a balanced evaluation. The evidence suggests that employment during adolescence can promote responsibility, independence, financial awareness, and early understanding of career paths. At the same time, these benefits depend greatly on factors such as working hours, job conditions, and the level of supervision. Young workers may also face risks, including lower academic performance, stress, fatigue, and workplace injuries. Parents often underestimate these everyday risks, particularly in informal jobs where regulation is limited. Overall, adolescent employment should not be seen as fully positive or negative; its outcomes are shaped by social, regulatory, and family-related contexts.

Keywords: adolescent employment, youth work, development, academic achievement, workplace safety, parental attitudes, labour laws, informal employment, youth development, work-life balance

Аннотация. Занятость подростков остаётся предметом активных дискуссий, поскольку она сочетает в себе как возможности для развития, так и определённые риски. В данной статье рассматриваются результаты исследования развития молодёжи Мортимера, данные о родительских взглядах (Usher et al., 2014), а также международные нормы регулирования труда. Результаты показывают, что умеренная и правильно организованная занятость способствует формированию у подростков ответственности, самостоятельности, финансовой грамотности и понимания профессиональной деятельности. Однако чрезмерная нагрузка или недостаточный контроль могут негативно сказаться на успеваемости, здоровье и общем состоянии подростков, вызывая усталость, стресс и повышая вероятность травм. Кроме того, выявляется несоответствие между тем, как родители воспринимают риски, и реальной ситуацией, особенно в



условиях неформальной занятости. Влияние работы на подростков во многом зависит от условий труда, уровня контроля и соблюдения законодательства.

Ключевые слова: занятость подростков, труд молодёжи, развитие, успеваемость, безопасность труда, родительские взгляды, трудовое регулирование, неформальная занятость, баланс работы и жизни

Annotatsiya. O'smirlar bandligi masalasi uning foydali tomonlari va mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini tufayli keng muhokama qilinmoqda. Ushbu maqolada Mortimerning uzoq muddatli tadqiqoti, ota-onalarning qarashlari (Usher va boshq., 2014) shuningdek, xalqaro mehnat me'yorlari asosida muvozanatli tahlil keltiriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, me'yoriy va yaxshi tashkil etilgan ish faoliyati o'smirlarda mas'uliyat, mustaqillik, moliyaviy savodxonlik va kelajak kasbiga oid tushunchalarni shakllantiradi. Shu bilan bir qatorda, ortiqcha ish yuklamasi yoki yetarli nazoratning yo'qligi o'qishdagi muvaffaqiyatga, sog'liq va umumiy farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, ota-onalarning xavf haqidagi tasavvurlari bilan real holat o'rtasida tafovut mavjudligi aniqlanadi, ayniqsa norasmiy ish sharoitlarida. Umuman olganda, o'smirlar bandligining ta'siri ish sharoiti, nazorat darajasi va qonunchilikka rioya etilishiga bog'liq.

Kalit so'zlar: o'smirlar bandligi, yoshlar mehnati, rivojlanish, akademik natijalar, mehnat xavfsizligi, ota-onalar qarashlari, mehnat qonunchiligi, norasmiy ish, ish va hayot muvozanati

Introduction. Working while adolescence is a common experience in many countries, especially in developed regions such as North America. Teenagers often take on part-time or informal jobs to earn money, gain independence, and develop practical skills before entering adulthood. Although this is generally seen as a positive step, it also raises concerns about its possible impact on education, mental health, and physical safety. Some researchers argue that early work experience aids young people become more responsible, disciplined, and mature. Others, however, warn that spending too much time working may interfere with school and expose adolescents to various risks. This study explores adolescent employment from three key angles: long-term developmental effects (Mortimer, 2010), parental perceptions of youth work and safety (Usher et al., 2014), and legal frameworks regulating child labour (ILO, 1973; U.S. Department of Labor, 2000). Positive Developmental Outcomes of Adolescent Employment. According to Mortimer's Youth Development Study, adolescent employment can be highly beneficial when it is properly managed. One of the main merit is the development of responsibility and time management, as young people learn to balance schoolwork with job commitments. Work experience also helps adolescents become more financially aware. By earning and managing their own money, they begin to understand budgeting, saving, and financial responsibility. Additionally, exposure to real work environments can strengthen confidence and independence. Another significant benefit is the opportunity to explore potential career paths. Early employment allows teenagers to discover their interests and gain insight into workplace expectations, which can help them make better decisions about their future.



However, these positive outcomes depend on the nature of the job. Reasonable working hours and supportive conditions tend to produce good results, while excessive workloads may harm academic performance and limit participation in school activities. In this sense, employment is most valuable when it supports education rather than competes with it. **Risks and Negative Consequences.** Despite its advantages, adolescent employment is not without risks. From an academic perspective, working long hours can reduce the time available for studying and negatively affect school performance. It may also prevent students from engaging in extracurricular activities that are important for personal growth. There are also health-related concerns. Adolescents who juggle school and work responsibilities may experience fatigue, stress, and lack of rest, particularly if their jobs are physically demanding. Some studies have also linked early employment to behaviours such as smoking or alcohol use, although these patterns are often influenced by existing social or personal factors. Workplace safety is another concern. Young workers, especially those in informal or service-sector jobs, may be exposed to risks such as cuts, burns, or injuries caused by equipment. These dangers are more likely in workplaces where supervision and training are insufficient. It is also essential to note that some adolescents who already face academic or behavioral challenges may be more likely to work longer hours. This makes it difficult to determine whether employment itself causes negative outcomes or simply reflects existing conditions. **Parental Perceptions of Youth Employment.** Studies by Usher et al. (2014) show that most parents view adolescent employment in a positive way. They often believe that working helps young people become more responsible, disciplined, and mature. Parents tend to associate employment with personal growth and financial awareness. Even when they recognize potential risks, they usually consider the benefits to outweigh the drawbacks. However, parents do not always fully understand the risks involved. They are more likely to worry about rare but serious dangers, such as violence, while overlooking more common issues like minor injuries or repetitive strain. This difference between perception and reality is influenced by trust in employers, confidence in their ability to supervise their children, and the belief that youth employment is voluntary and therefore safe. As a result, informal jobs are often seen as harmless, even when proper safety measures are lacking.

Legal and Structural Frameworks. Youth employment is regulated in most countries through laws that set minimum working ages, limit working hours, and restrict hazardous work. International standards, such as the ILO Minimum Age Convention (No. 138), provide guidance for protecting young workers. However, enforcing these regulations can be difficult, particularly in informal sectors like babysitting or small service jobs. Such work is often not closely monitored, which makes it harder to ensure safety and accountability. As a result, adolescents working in informal settings may face greater risks due to limited supervision and unclear legal protection.

Synthesis of Findings. The literature highlights several key points. First, the effects of adolescent employment depend largely on context, including working



conditions, supervision, and individual background. Second, employment offers both benefits and challenges. While it can promote independence and practical skills, it may also create pressure and health-related issues. Third, there is a noticeable gap between how parents perceive risks and the actual dangers involved, particularly in informal work environments. Finally, proper supervision and effective regulation play a crucial role. Well-organized jobs tend to support positive development, whereas unregulated work increases the likelihood of harm.

Conclusion. Adolescent employment is a complex issue that cannot be described as entirely good or bad. Its impact depends on how work is organized, supervised, and balanced with education. When managed appropriately, employment can help young people develop valuable life skills, independence, and financial awareness. However, excessive or poorly regulated work can negatively affect both academic performance and overall well-being.

For this reason, strong labour regulations and active parental involvement are essential to ensure that adolescent employment remains a positive and safe experience for young people.

Key Insight. Youth employment is most beneficial when it is balanced, supervised, and does not interfere with schooling. Risks become more pronounced when work is intensive, informal, or weakly regulated.

References

International Labour Organization. (1973). Minimum Age Convention, 1973 (No. 138).

<https://www.ilo.org>

Mortimer, J. T. (2010). The benefits and risks of adolescent employment. *The Prevention Researcher*,

17(2), 8–11. <https://doi.org/10.20835367>

U.S. Department of Labor. (2000). Report on the youth labor force. U.S. Government Printing Office.

Usher, A. M., Breslin, C., MacEachen, E., Koehoorn, M., Laberge, M., Ledoux, É., Laberge, L., &

Wong, I. (2014). Employment and work safety among 12 to 14 year olds: Listening to parents. *BMC*

Public Health, 14, Article 1021. <https://doi.org/10.1186/1471-2458-14-1021>



АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYONDALARINING QARASHLARIDA
KITOBXONLIK

Eniyazova Ruxsora Jo'shqin qizi

UrDPI Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va

huquq ta'limi yo'nalishi 241-guruh talabasi

joshqinovnaruxsora@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati namoyondalarning qarashlarida kitobxonlik va uning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati yoritilgan. Ularning faoliyatida millatni ilmga yo'naltirish, o'z tashabbuslari bilan kutubxonalar tashkil etish borasidagi harakatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Jadid, alloma, kutubxona, ma'naviy, ma'rifiy, jadidlar ta'limoti, tarbiya, madrasa, mutolaa.

Аннотация: В данной статье освещаются взгляды представителей джадидского движения, сформировавшегося в начале XX века в Центральной Азии, на проблему чтения и его духовно-просветительское значение. Анализируется их деятельность, направленная на приобщение нации к знаниям, а также инициативы по созданию библиотек.

Ключевые слова: джадид, ученый, библиотека, духовный, просветительский, учение джадидов, воспитание, медресе, чтение.

Abstract: This article examines the views of representatives of the Jadid movement, which emerged in Central Asia at the beginning of the 20th century, regarding reading and its spiritual and educational significance. It analyzes their activities aimed at guiding the nation toward knowledge, as well as their initiatives in establishing libraries.

Keywords: Jadid, scholar, library, spiritual, educational, Jadid doctrine, upbringing, madrasa, reading.

Jadidchilik yoki jadidizm XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy harakat hisoblanadi. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi jamiyatni ilm-fan, madaniyat va siyosiy ong orqali rivojlantirishga qaratilgan edi. "Jadid" so'zining asli lug'aviy ma'nosi arabcha so'zdan olingan bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Jadidlar o'z g'oyalari va asarlari orqali xalqni ma'naviyatli va ma'rifatli qilishga harakat qilgan.

Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lkaning ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda



Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is‘hoqxon Ibrat, Xivada Boboovun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma‘rifatparvar, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Jadidlar ta‘limoti – o‘z zamonasining haqiqiy ta‘limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o‘z ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo‘lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo‘lishlarini ta‘kidlaydilar. Sog‘lom farzandlarni tarbiyalash uchun o‘qib-o‘rganib ilmiy, ma‘rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o‘z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta‘kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta‘lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so‘z yuritib, o‘z farzandining ma‘rifatli bo‘lishi uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta‘kidlagan. Jadidlar ota-onalar o‘z farzandlarining tarbiyasi bilan shug‘ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta‘kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o‘qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o‘quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar.

Yosh avlodda yuksak ma‘naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o‘zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushinishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta‘minlash ma‘naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi. Taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deb yozgan edi. Mashoyixlarning aytishlaricha, “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”. A.Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asari yangi usul maktablarining yuqori sinflarida ta‘lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o‘qitilgan. A.Avloniyning asarini chuqur o‘rganar ekanmiz, biz o‘sha davrda maktablarda o‘quvchilarga dars berishda umuminsoniy va diniy qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodi, Qur‘on oyatlari, hadislar shuningdek, buyuk allomalarimizning hikmatli so‘zlaridan imkon qadar keng foydalanganliklarini ko‘ramiz.

Jadidlar uchun kutubxona – bu ma‘naviy taraqqiyot markazi edi. O‘sha davrda mavjud bo‘lgan an‘naviy maktablar va madrasalar ko‘proq diniy ta‘lim berishga yo‘naltirilgan edi. Jadidlar esa zamonaviy fanlarni o‘rgatish, jahon tajribasidan foydalanish, yangi ilmiy g‘oyalarni xalq orasiga yoyish niyatida edilar. Shu sababli ular matbaa, darslik va kutubxonalarini barpo etishni o‘zlarining ustuvor vazifasi sifatida ko‘rishdi. Mashhur jadidlarning kutubxonachilik sohasini va kitobxonlik strategiyalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak hozirgi zamonamizning yuksakligiga asosan jadidlar yaratgan kutubxonalar sababligi yaqqol ko‘rinib turibdi.



Jadidlarning ma'rifatparvarlik yo'lidagi yutuqlarida kutubxonalar bilim manbasi sifatida — jamiyat va inson haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, ma'naviy tarbiya maskani sifatida — axloqiy, diniy va fuqarolik qiymatlarini targ'ib qilish, ijtimoiy muloqot maydoni sifatida — ziyolilar, o'qituvchilar, talabalar va keng jamoatchilik uchrashuvlari uchun xizmat qilgan.

Ularning asosiy maqsadlarini Abdulla Avloniyning “Madaniyat to'liqlari” nomli maqolasini o'qish orqali to'la anglash mumkin. U quyidagicha yozadi: “Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o'qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta'limga mohir olim va olima, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartibli bo'lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar yetushub, zamonga muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartibli “Dorul-yatim”-yetimxonalar, “Dorul-ujizin” – kambag'alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkatlar barpo qilinsa, yuqorida dedegimiz kabi, xalqimiz orasida zamonga loyiq ulum va funundan bohobar ulamolarimiz ko'paysa, och va yalang'och kishilarimizning mashaqqatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o'qutilsa, ahloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo'stonig'a yuzlangan hamda madaniyat to'liqlaridan qutulub salomatg'a chiqq'an bo'lur edik⁵”.

Darhaqiqat, jadidchilik harakati namoyondalarining qarashlarida kitobxonlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular barpo etgan maktablari, kutubxonalari xalqni yanada yetuk va ilimli qilib tarbiyalash, ularni omgsizlik botqog'idan olib chiquvchi nur sifatida qaralgan.

Shu o'rinda yoshlar o'rtasida mutolaani zaiflashganligi borasida ma'lum bir mulohazalarni bildirib o'tish mumkin. Yoshlarda mutolaaga nisbatan ishtiyoq uyg'otish ularning bolalik davridan boshlanishi zarur. Lekin, bolalar uchun ular qiziqib o'qiydigan, rang-barang, sarguzashtlarga boy asarlar deyarli mavjud emas.

1908-yilda Samarqand shahrida jadid Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan „Mutolaaxona“ nomli kutubxonaga asos solingan edi. Maskan faoliyatida Mahmudxo'ja Behbudiyga safdoshlari Hoji Muin, Saidahmad Vasliy Samarqandiy va muallim Abduqodir Shakuriy ko'maklashishgan. Tarkibiy jihatdan juda boy, xilma-xillikka ega fond bo'lgan. Kutubxona turli davlatlarda nashr qilingan diniy hamda dunyoviy kitoblar, suratli jurnal va gazetalar, ensiklopediya, lug'atlar, xarita va atlaslardan tashkil topgan edi.

Shundan ilhomlanib, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, va ular uchun mutolaa olamida yangi imkoniyatlarni yaratish maqsadida, millionlab kitoblarni o'z ichiga olgan, turli janrlardagi kitoblarni matn hamda audio shakllarini o'zida mujassam etgan loyiha ishlab chiqildi. Loyihaga ma'rifatparvarning xalqning ziyosini oshirishga qaratilgan kutubxona nomidan ilhomlangan holda „Mutolaa“ nomi berilgan.

Mutolaa – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihasi hisoblanadi. Loyihaga O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining direktori Alisher

⁵ Nosirov O'. Jadidlar davrida kutubxonalar // <https://jadid.uz/jadidlar-davrida-kutubxonalar/>



Sa'dullayev tomonidan 2024-yilning boshida asos solingan. 2023-yil 15-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga yoshlar siyosatida amalga oshirilgan ishlar va kelgusida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar bo'yicha hisobotda „Mutolaa“ loyihasidan foydalanadigan foydalanuvchilar sonini 1,5 million nafarga yetkazilishi belgilangan. Loyiha YouTube ijtimoiy tarmog'ida video shaklida audio kitoblar shaklida hamda ilova shaklida “GooglePlay” hamda „App store“ platformalariga joylanib kelinmoqda. Loyihadan hozirgi paytda 1,4 milliondan ortiq foydalanuvchilar foydalanishmoqda. 4000 ga yaqin kitoblarning elektron va audio shakllari joylangan.

Kimyoviy tolalarning rivojlanish tarixi. Kimyoviy tolalar ilk bor XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ishlab chiqarila boshlandi. Dastlab sun`iy tolalar — viskoza tolasi yaratilgan. Keyinchalik sintetik tolalar, jumladan neylon, kapron va lavsan ishlab chiqildi. 1890-yillarda viskoza tolasi, 1930-yillarda neylon sintez qilindi va 1950-yillarda poliefir tolalari keng tarqaldi. Bugungi kunda kimyoviy tolalar ishlab chiqarish global sanoatning muhim yo`nalishiga aylangan.

Kimyoviy tolalarning tasnifi. Kimyoviy tolalar kelib chiqishiga ko`ra ikki katta guruhga bo`linadi:



Sun`iy tolalar: Tabiiy tozalash va mehanik ishlov berish yo`li bilan to`g`ridab-to`g`ri o`ralib bo`lmaydigan selluloza 9 yog`och, paxta momig`i va shakarqamish)



materiallardan

tayyorlangan

tola

turidir.

Misollar:



Viskoza tolasidan mato



Atsetat tolasidan mato

Sintetik tolalar: Sintetik makromolekulyar materiallardan, ya'ni tabiiy gaz, neft, ko'mir, ohaktosh, paxta chigiti va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tayyorlangan tolalar turidir. Misollar:



Kapron (poliamid) tola



Neylon Lavsan (poliefir)




Akril tolalar

Kimyoviy tolalar quyidagi fizik xususiyatlarga ega: Mustahkamlik – sintetik tolalarda juda yuqori, Elastiklik – qayta tiklanish qobiliyati yaxshi, Yengillik – zichligi past, Issiqlikka chidamlilik – ayrimlari yuqori haroratga bardosh beradi Yorug'likka chidamlilik – quyosh nurlariga nisbatan barqaror.

Kimyoviy tolalarning kimyoviy xossalari: Kislotalar va ishqorlarga chidamliligi turlicha, Oksidlanishga qarshiligi yuqori, Biologik ta'sirlarga chidamli (chirimaydi), Ba'zi tolalar yonuvchan.

Molekulyar tuzilish va xossalarning bog'liqligi. Kimyoviy tolalarning xossalari, ularning molekulyar tuzilishiga bog'liq: Zanjir uzunligi → mustahkamlikka ta'sir qiladi, kristallik darajasi → qattiqlikni oshiradi, molekulalararo bog'lar → elastiklikni belgilaydi. Sintetik tolalarda molekulalar tartibli joylashganligi sababli ular juda mustahkam bo'ladi.



Xulosa: Kimyoviy tolalar zamonaviy sanoatning ajralmas qismidir. Ular yuqori mustahkamligi, arzonligi va ko'p funktsionalligi bilan ajralib turadi. Ilm-fan rivoji bilan kelajakda yanada mukammal, ekologik xavfsiz tolalar yaratilishi kutilmoqda. Kimyoviy tolalar inson hayotida muhim o'rin egallashda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharipov Sh. S., Qo'ysinov O. A., va boshqalar, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik Toshkent-2022y.
2. A.l. Hamroyev. "Kimyoviy tolalar ishlab chiqarish texnologiyasi".
3. Ziyet.comКонец формы



GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA "DIDAKTIK O'YIN" METODLARIDAN FOYDALANISH

Matyakubova Muhabbat Agabayevna
Xorazm viloyati, Xiva tumani, 39-maktab
Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi, Geografiya fanini o'qitishda qo'llanishi mumkin bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiya turlari va Didaktik o'yin metodlarning qo'llanishi hamda afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ilg'or pedagogik texnologiyalar, Didaktik o'yinlar, "Topgan tapaloq" metodi, "Pluyus va minus" metodi. "Pochtalon metodi, "Jadval bilan ishlaymiz" metodi, "Kim bilimdon" metodi

Ta'lim jarayoniga innovatsion va interfaol metodlarni tadbiq etishga qiziqish yil sayin ortib bormoqda. Sababi, bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligini va ta'sirchanligini, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

Ta'lim jarayonida innovatsion va ilg'or pedagogik metodlardan foydalanib va didaktik o'yin metodlari orqali dars olib borishda eng avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqarilishi zarur.

Pedagogik jarayonda, o'quvchilarning faol holatni egallashi ta'lim berishda yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Buning uchun o'quv jarayonining barcha tashkiliy jihatlarida o'quvchilar o'qishga bo'lgan intilish, qiziqish uchun asos (motiv)ni shakllantirish kerak.

O'qituvchi o'quvchilarni darslarda faol bo'lishiga, o'zi va o'rganuvchilar uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari metodlarini izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyanib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga harakat qiladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishiladi.

Geografiya fanini o'qitishda, quyidagi ilg'or pedagogik texnologiyalar va didaktik o'yin (metodlar)dan foydalanilsa, ta'lim jarayonida samaradorlikka erishish mumkin.

"Topgan tapaloq" metodi. Bu metodni geografiya darslarida, 5-6 sinf o'quvchilariga qo'llash darsning samarali bo'lishiga ko'mak beradi. Dars mavzusiga mos ravishda o'quvchilarga 10-15 ta tasvirli chizma tarqatiladi. Masalan, tog', vulqon, daryo, orol, ayzberg, yaylov, cho'l yoki kartadagi biror shartli belgining rasmi bo'lishi mumkin. O'quvchilar 10 daqiqa davomida, qo'llaridagi rasmlarni og'zaki yoki yozma shaklda izohlab berishlari kerak bo'ladi. Javoblar aniq va puxta berilganligiga qarab g'oliblar aniqlanadi va baholanadi.

"Pluyus va minus" metodi. Bu metodni barcha fanlarning mustahkamlash qismida, qo'llanilsa bo'ladi. Misol tariqasida, o'qituvchi A3 format qo'gozga yoki panelli manitorga quyidagicha ma'lumotlar yozadi, o'quvchilar esa, to'g'ri



ma'lumotlar bo'lsa, osha ma'lumot to'g'risiga "+" belgisini qo'yadi, ma'lumot xato bo'lsa, "-" belgisini qo'yadi, shu tariqa, o'quvchining bilimlari analiz qilinadi.

T.r	Ma'lumotlar	Plyuz yoki minus
1	Oltin, kumush qimmatbaho metallar	+
2	Kattaqo'rg'on shahar Farg'ona viloyatida joylashgan	-
3	Yer yuzi hududining 2/3 qismni suv tashkil etadi	+

"Pochtalon" metodi. Bu metodni asosan 6-sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq. O'qituvchi bir nechta (mavzuga mos) konvert olib, uning ustiga mavzu yozib qo'yadi. Masalan, 6 ta konvertga: "Afrika", "Antarktida", "Avstraliya", "Janubiy Amerika", "Shimoliy Amerika", "Yevrosiyo" deb yozib, doskaga ilib qo'yiladi. Keyin bu materiklarda joylashgan, ko'l, daryo, shahar, cho'l, to'g', davlat, tekislik va boshqalar yozilgan kichik kartoshkalar tarqatiladi. Qaysi nom qaysi materikka mos kelsa, o'quvchi o'sha materik nomi yozilgan konvertga solishi kerak bo'ladi. Kim kartoshkalarni to'g'ri va ko'p joylashtirgan bo'lsa, o'sha o'quvchiga yuqori ball beriladi. Bu metodni kichik guruhlariga bo'lingan holda ham o'tkazish mumkin.

"Jadval bilan ishlaymiz" metodi. Bu metodda o'qituvchi mavzuga oid jadvalni avvaldan tayyorlab qo'yishi kerak bo'ladi. 3A varaqqa jjadva berilgan ularni o'quvchilar olgan bilimlari orqali to'ldirishlari kerak bo'ladi, misol uchun:

T.r	Daryolarga xos xususiyatlar	Daryolar nomlari
1	Daryoning quyi qismi 120 kun muzlaydi	
2	Dunyodagi eng loyqa daryolardan biri	
3	Ugom, Piskom kabi ilmoqlari bor	
4	Chotqol va Qurama tog'laridan boshlanadi	Qashqadaryo
5	Yirik ilmoqlaridan biri Dukent	
6	Qadimgi nomi Yaksart bo'lgan daryo	
7	O'rta Osiyoda eng tinik bo'lgan daryo	

"Kim bilimdon" metodi. Bu metodda, o'qituvchi tomonidan, mavzu yoki bob yuzasidan qisqa savollar tuzadi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linishadi va oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarni birin ketin olib javob berishadi. Qaysi guruh ko'proq to'g'ri javoblarni aytishsa, o'sha guruh g'olib deya e'lon qilinadi.

Quyida savollarga misollar keltiramiz.

1. Harorat qanday asbob bilan o'lchanadi? Javob: Temometr
2. Yerning nechta qobig'I bor? Javob: 4 ta.
3. Yer yuzining qancha foizi suv bilan qoplangan? Javob: 71%
4. O'zbekistondagi eng uzun daryo nomi? Javob: Sirdaryo
5. O'zbekistonning eng katta ko'li qanday nomlanadi? Javob: Orol dengizi

Xulosa o'rnida shu takidlab o'tish lozimki, geografiya darslarda yuqorida ko'rsatilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni va "Digaktik o'yin" metodlarini qo'llash ta'lim jarayonini sifatli qilibgina qolmasdan, balki o'quvchilarning o'z ustida ishlashlariga izlanuvchanlikka undaydi, mavzuni chuqurroq o'rganishlari va



sifatli ta`lim olishlariga ko`makchi bo`ladi, eng asosiysi, ta`limda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo`ldoshev J.G`, Usmonov S.A., Pedagogik texnologiya asoslari. Qo`llanma. – T.: «O`qituvchi», 2004.
2. “Maktabda Geografiya” ma`naviy-ma`rifiy, ta`limiy jurnali. 2013-yil, 10-soni.



О‘ЗБЕК CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXI VA BUGUNIGA ILMIY NAZAR

Davletov Mayliboy Yusupovich
Urganch davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
mayliboydavletov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek cholg‘u ijrochiligining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, uning nazariy asoslari, maqom tizimidagi o‘rni, an’anaviy ijrochilik maktablari hamda zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi yozma manbalar, Sharq mutafakkirlarining musiqa haqidagi qarashlari, XX asr professional ijrochilik maktablari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Cholg‘u ijrochiligi, milliy musiqa asboblari, maqomot, Shashmaqom, ustoz-shogird an’anasi, tarixiy evolyutsiya, musiqiy risola, Buxoro maktabi, Xorazm maktabi, Farg‘ona-Toshkent maktabi, professionalizatsiya, akademik ijrochilik.

O‘zbek cholg‘u ijrochiligi – bu nafaqat musiqiy faoliyat turi, balki millatning tarixiy xotirasi, estetik tafakkuri va ruhiy olamini ifodalovchi murakkab san’at tizimidir. Ushbu san’at turi xalqning kundalik turmushi, marosimlari, diniy qarashlari va ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Cholg‘u ijrochiligi, ayniqsa, og‘zaki an’ana asosida shakllanganligi sababli, uning rivoji ustoz-shogird tizimi orqali avloddan-avlodga uzatilgan. Shu jihatdan u yozma madaniyatdan ko‘ra jonli ijro va amaliy tajribaga ko‘proq tayanadi. Nazariy nuqtayi nazardan qaralganda, o‘zbek cholg‘u ijrochiligi Sharq musiqa tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu tizim maqomot asosida qurilgan bo‘lib, unda lad (parda), usul (ritm) va shakl (forma) kabi elementlar muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy davrda esa ushbu an’anaviy tizim global musiqa jarayonlari bilan integratsiyalashib, yangi ijodiy shakllarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois mazkur maqolada tarixiylik va zamonaviylik o‘zaro uyg‘unlikda tahlil qilinadi.

Markaziy Osiyo hududida musiqa san’ati qadimdan rivojlangan bo‘lib, bu holat arxeologik topilmalar va tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Afrosiyob, Tuproqqal’a va boshqa qadimiy shaharlardan topilgan devoriy rasmlarda sozandalar tasvirlangan bo‘lib, bu o‘sha davrda cholg‘u ijrochiligi ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo‘lganini ko‘rsatadi. Qadimgi cholg‘ular shakl jihatdan sodda bo‘lsa-da, ular tovush chiqarish prinsipi va ijro texnikasi jihatidan mukammallikka ega bo‘lgan. Masalan, torli cholg‘ularning dastlabki ko‘rinishlari keyinchalik dutor va tanbur kabi asboblarning shakllanishiga asos bo‘lgan.

Sharq mutafakkirlari musiqa nazariyasini ilmiy asosda ishlab chiqqanlar. Abu Nasr al-Farobiy musiqa ilmini matematika bilan bog‘lab, tovushlar orasidagi nisbatlarni ilmiy asosda tushuntiradi. Ibn Sino esa musiqa inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi muhim vosita ekanligini ta’kidlaydi. Bu nazariy qarashlar cholg‘u



ijrochiligining nafaqat amaliy, balki ilmiy asosda ham rivojlanganligini ko'rsatadi. Aynan shu davrda musiqa va cholg'u ijrochiligi san'atdan tashqari ilmiy tadqiqot ob'ektiga ham aylangan.

O'rta asrlar davri o'zbek cholg'u ijrochiligi tarixida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, aynan shu davrda maqom tizimi shakllandi. Maqom – bu murakkab musiqiy tizim bo'lib, unda lad, ritm va shakl uyg'unligi asosida yirik asarlar yaratiladi. Shashmaqom tizimi Buxoro hududida mukammal shaklga kelgan bo'lib, u oltita asosiy maqomdan iborat: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq. Har bir maqom o'ziga xos ohang tizimi va ijro uslubiga ega bo'lib, cholg'u ijrochilari uchun yuqori mahorat talab qiladi.

Hududiy ijrochilik maktablari esa mazkur tizimni yanada boyitgan. Masalan, Buxoro maktabi murakkab va chuqur ifodaviylik bilan ajralib tursa, Xorazm maktabida ritmik faollik va jo'shqinlik ustunlik qiladi. Farg'ona–Toshkent maktabi esa lirizm va nafislik bilan ajralib turadi. Bu maktablar orasidagi farqlar ijrochilik texnikasida, bezaklarda (ornamentika), tovush chiqarish usullarida yaqqol ko'rinadi. Natijada o'zbek cholg'u ijrochiligi ko'p qirrali va rang-barang tizim sifatida shakllandi.

XX asr o'zbek cholg'u ijrochiligi tarixida tub burilish davri bo'ldi. Bu davrda milliy musiqa professional sahnaga chiqdi va akademik tizimga asos solindi. O'zbek Davlat Filarmoniyasining tashkil etilishi, milliy orkestrlarning shakllanishi, nota yozuvining joriy etilishi – bularning barchasi cholg'u ijrochiligini yangi bosqichga olib chiqdi. Avvallari og'zaki an'ana asosida o'rgatilgan kuylar endilikda yozma shaklda saqlanib, tizimli ravishda o'rgatila boshlandi.

Bu davrda yetishib chiqqan san'atkorlar milliy ijrochilik maktabining asoschilariga aylandilar. Masalan, Yunus Rajabiy maqomlarni qayta tiklab, ularni ilmiy asosda tizimlashtirdi. Faxriddin Sodiqov va boshqa sozandalar esa ijrochilik texnikasini boyitib, yangi asarlar yaratdilar. Shuningdek, kompozitorlar milliy cholg'ular uchun simfonik va kamer asarlar yozib, ularning imkoniyatlarini kengaytirdilar. Bu jarayon milliy musiqa bilan Yevropa musiqa tizimi o'rtasida sintez yuzaga kelishiga olib keldi.

Mustaqillik yillarida o'zbek cholg'u ijrochiligi milliy o'zlikni tiklash jarayonining muhim qismiga aylandi. Davlat tomonidan milliy musiqa merosini asrash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Shashmaqom san'atining UNESCO tomonidan e'tirof etilishi ushbu san'at turining xalqaro miqyosdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Shu bilan birga, an'anaviy cholg'ular qayta tiklanib, ularning tarixiy shakli va ovoz xususiyatlari restavratsiya qilindi.

Zamonaviy davrda esa cholg'u ijrochiligi yangi yo'nalishlar bilan boyimoqda. Masalan, etno-jazz, world music kabi yo'nalishlarda milliy cholg'ular keng qo'llanilmoqda. Dutor va gijjak kabi asboblarda zamonaviy sahnada yangi ohanglarda yangramoqda. Yosh ijrochilar xalqaro festivallarda qatnashib, milliy musiqani global miqyosda targ'ib qilmoqda. Bu jarayon milliy an'ana va zamonaviylik uyg'unligining yorqin namunasidir.

O'zbek cholg'u ijrochiligida ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari, kollejlar va oliy ta'lim muassasalari



professional ijrochilarni tayyorlashda asosiy rol o‘ynamoqda. Bu muassasalarda nafaqat amaliy ijro, balki musiqa nazariyasi, maqomot, tarix va pedagogika fanlari ham o‘qitiladi. Natijada ijrochilar har tomonlama bilimli va malakali mutaxassis sifatida shakllanadi. Biroq, ustoz-shogird an‘anasi hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki cholg‘u ijrochiligi nozik ijro sirlarini bevosita ustozdan o‘rganishni talab qiladi. Masalan, maqom ijrosidagi ohang bezaklari, improvizatsiya (badihago‘ylik) va uslubiy nozikliklar faqat amaliy tajriba orqali o‘zlashtiriladi. Shu bois zamonaviy ta‘lim tizimi bilan an‘anaviy ustoz-shogird maktabining uyg‘unligi ijrochilik sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbek cholg‘u ijrochiligi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan, boy va murakkab san‘at tizimidir. Uning rivoji qadimgi davrlardan boshlab, o‘rta asrlar maqom tizimi, XX asr professional maktabi va mustaqillik davridagi yangilanish jarayonlari orqali uzluksiz davom etib kelmoqda. Har bir davr ushbu san‘at turiga yangi mazmun va shakl olib kirgan. Bugungi kunda o‘zbek cholg‘u ijrochiligi milliy va global madaniyatlar kesishgan nuqtada rivojlanmoqda. Yosh avlodning ushbu san‘atga qiziqishi, ilmiy tadqiqotlarning kengayishi va xalqaro hamkorliklar uning kelajagini yanada porloq qiladi. Shu bois o‘zbek cholg‘u ijrochiligini chuqur o‘rganish va rivojlantirish – nafaqat san‘atshunoslik, balki milliy madaniyatni asrash nuqtai nazaridan ham dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov M.X. O‘zbek teatri tarixi. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. – 240 b.
2. Qodirova D.M. XX asr o‘zbek teatri ssenografiyasi: tarkib topishi va rivojlanish jarayonlari: Avtoreferat. ... san.fan. dok. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San‘atshunoslik instituti, 2010. – 48 b.
3. Rahmonov M. O‘zbek teatri qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: Fan, 1975.
4. Sayfullayev B. Tomosha san‘ati tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 152 b.
5. Tursunov T. Sahna va zamon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 404 b.
6. Madaniyat va san‘at atamalarining izohli lug‘ati. B.Sayfullayev tahriri ostida. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 352 b.



INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Mamirova Feruza Sulaymonovna

Sarbov universiteti o'qituvchisi

sulaymonovnaferuza@gmail.com

Anotatsiya. Maqolada ingliz tilini o'rganishda paydo bo'ladigan psixologik xavotir va uning o'rganishga ta'sirini tahlil qiladi. Xavotir ijtimoiy bahodan qo'rquv, past o'zini baholash, perfektsionizm, salbiy tajribalar va stress bilan bog'liq bo'lib, gapirish ko'nikmalarini cheklaydi, diqqat va xotirani pasaytiradi, motivatsiyani susaytirishi haqida va kognitiv-behavioral yondashuv, self-compassion, ijobiy o'quv muhiti va kichik guruhlarda mashqlar orqali qo'rquvni kamaytirish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, Language Anxiety, perfektsionizm, til o'rganish xavotiri, psixologik omillar, motivatsiya.

Bugungi globalashuv davrida ingliz tilini o'rganish shaxsning ta'limiy, kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatida muhim omildir. Shunga qaramay, ko'plab o'rganuvchilarda ingliz tilida gapirish yoki tinglab tushunishga doir qo'rquv, uyatchanlik va xavotir shakllanadi. Bu holat psixologiyada *Language Anxiety* yani til o'rganishdagi xavotir [2] deb ataladi.

Til o'rganish xavotiri chet tilini egallash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va psixologik zo'riqish holati bo'lib, u odatda omma oldida gapirishdan tortinish, xato qilishdan cho'chish, atrofdagilar tomonidan salbiy baholanishdan qo'rqish hamda o'z imkoniyatlarini past baholash kabi emotsional reaksiyalar orqali ifodalanadi. Ushbu holatning paydo bo'lishi ko'p hollarda o'quvchining tilni bilish darajasi yoki intellektual salohiyati bilan emas, balki uning psixologik tayyorgarligi, o'ziga bo'lgan ishonch darajasi, ilgari orttirgan ta'limiy tajribasi va ijtimoiy muhitning xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli chet tilini o'rganish jarayonida kuzatiladigan xavotirni kamaytirish uchun mazkur psixologik omillarni chuqur anglash va ularni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Til o'rganish jarayonida kuzatiladigan muhim psixologik to'siqlardan biri o'quvchining boshqalar tomonidan salbiy baholanishidan xavotirlanishidir. Bunday holatda o'rganuvchi nutq jarayonida xatoga yo'l qo'yish, talaffuzdagi kamchiliklar yoki atrofdagilarning tanqidi va masxarasiga uchrash ehtimoli haqida ortiqcha tashvishlanadi. Mazkur ichki zo'riqish uning fikrlarini erkin va ravon ifoda etishiga to'sqinlik qiladi. Natijada o'quvchi og'zaki muloqotdan chetlashib, ko'proq tinglovchi pozitsiyasini egallaydi hamda ta'lim jarayonida sust ishtirok etadi. Ushbu holat til o'rganishdagi kommunikativ faollikning pasayishiga va nutqiy ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi.

Ba'zi o'rganuvchilar o'zlarida "men ingliz tilini baribir o'rgana olmayman" degan ichki ishonchsizlikni shakllantirib oladilar. Bu kabi salbiy o'z-o'zini baholash



motivatsiyaning sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Bunday fikrlash ko‘pincha tajribasiz o‘qituvchining noto‘g‘ri yondashuvi, adolatsiz baholash yoki bolalik davrida bosib o‘tilgan salbiy o‘quv tajribalaridan kelib chiqadi.

Til o‘rganishda perfeksionizm ham kuchli psixologik to‘siq hisoblanadi. “Faqat mukammal gapira olsamgina so‘zlayman” degan ichki talab o‘quvchida ortiqcha bosim paydo qiladi. Perfeksionistik yondashuv natijasida o‘rganuvchi xato qilishdan haddan tashqari qo‘rqadi va buning oqibatida umuman gapirmaslikni afzal ko‘radi [1,2]. Bu esa uning faol muloqot ko‘nikmalarini cheklaydi. Shu bilan birga til o‘rganish jarayonida avvalgi o‘qituvchilar tomonidan tanqid qilinish, kulgi ostida qolish, jazolanish yoki sinf oldida sharmanda bo‘lish kabi salbiy holatlar o‘rganuvchida ingliz tiliga nisbatan kuchli qo‘rquv shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bunday tajribalar keyinchalik har qanday nutqiy vaziyatda o‘zini himoya qilish reaksiyasini kuchaytirib, shaxsning erkin gapirishiga to‘sqinlik qiladi.

Til o‘rganish jarayonida o‘rganuvchining umumiy emotsional holati muhim rol o‘ynaydi. Uyqu yetishmasligi, kuchli stress, oilaviy muammolar yoki darsga yetarlicha tayyor bo‘lmaslik kabi omillar xavotir darajasining oshishiga olib keladi. Bunday vaziyatda insonning kognitiv resurslari — e‘tibor, xotira hamda tez fikrlash qobiliyati sezilarli darajada pasayadi[5]. Natijada o‘quvchi til materialini qabul qilishda, eslab qolishda yoki erkin nutqda qiynaladi.

Til o‘rganishda xavotirning eng yaqqol ko‘rinadigan oqibatlaridan biri — bu nutqiy faollikning pasayishidir. Xavotir kuchaygan o‘quvchi fikrini tez va ravon ifodalashda qiynaladi, muloqot jarayonida o‘zini erkin his qilmaydi va natijada gapirishdan qochishga moyillik paydo bo‘ladi. Bu esa uning muloqot ko‘nikmalarining to‘laqonli shakllanishini cheklab, amaliy til tajribasini kamaytiradi.

Til o‘rganishdagi qo‘rquvning yana bir muhim omili — bu ichki motivatsiyaning susayishidir. Qo‘rquv kuchaygan sari o‘quvchi ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishini yo‘qota boshlaydi, yangi mavzularni o‘zlashtirishga nisbatan befarq bo‘lib qoladi[3]. Bu holat o‘quv jarayonida faol qatnashmaslikka, topshiriqlarni kechiktirishga va tilga nisbatan umumiy ijobiy munosabatning kamayishiga olib keladi.

Xavotirni kamaytirishda o‘quvchining o‘ziga nisbatan mehribon bo‘lishni o‘rganishi ham muhim ahamiyatga ega. Self-compassion tamoyiliga ko‘ra, o‘rganuvchi xatolar uchun o‘zini ayblashdan voz kechadi va o‘zini qo‘llab-quvvatlashni afzal ko‘radi[4]. Bunday yondashuv ichki bosimni kamaytirib, til o‘rganishga bo‘lgan ijobiy munosabatning shakllanishiga yordam beradi.

Til o‘rganishdagi xavotir ko‘pincha o‘qituvchining munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun rag‘batlantiruvchi, iliq va psixologik jihatdan qulay o‘quv muhitini yaratish juda muhimdir. O‘qituvchining xatoni tabassum bilan izohlashi, o‘rganuvchini maqtashi, quvnoq va do‘stona atmosfera shakllantirishi qo‘rquv darajasini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa o‘quvchilarni faol va erkin muloqotga undaydi.

Til o‘rganish jarayonida rol-o‘yinlar, juftlikdagi dialoglar yoki kichik guruhlarda muloqot qilish o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Bunday



maslg'ulotlar sinf oldida gapirish bosimini kamaytirib, o'rganuvchiga muloqotni tabiiy va erkin shaklda mashq qilish imkonini beradi. Shu orqali u asta-sekin o'z ishonchini mustahkamlab, xavotirdan xoli gapira boshlaydi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki ingliz tilini o'rganishda paydo bo'ladigan qo'rquv shaxsning psixologik holati, o'zini baholashi va o'quv muhiti bilan bog'liq. Ijtimoiy bahodan qo'rquv, past o'zini baholash, perfektsionizm, salbiy tajribalar va stress nutqiy faollikni pasaytiradi, diqqat va xotirani susaytiradi hamda motivatsiyani kamaytiradi.

Kognitiv-behavioral yondashuv, self-compassion, ijobiy o'quv muhiti va kichik guruhlarda mashqlar qo'rquvni kamaytiradi, o'quvchida erkin muloqot va tilga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shu bois psixologik yondashuvlarni qo'llash tilni samarali o'rganish va motivatsiyani oshirish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign Language Classroom Anxiety. *The Modern Language Journal*, 70(2), 125–132.
2. Macintyre, P. D., & Gardner, R. C. (1991). Methods and results in the study of anxiety and language learning: A review of the literature. *Language Learning*, 41(1), 85–117.
3. Young, D. J. (1991). Creating a Low-Anxiety Classroom Environment: What Does Language Anxiety Research Suggest? *The Modern Language Journal*, 75(4), 426–439.
4. Sulaymonovna M. F. . (2023). Psychological Features of Formation of Professional-Ecological Culture in Students of Higher Educational Institutions. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2 (1), Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/521>



ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA "ТАЛАБА – ОТА-ОНА – ТУТУОР" О'ZARO HАMKORLIK TIZIMI

Malikova Dildoraxon Qobilovna

Chirchiq davlat pedagogika
universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail:soul_db@mail.ru

Аnnотatsiya: Ushbu maqolada muallif oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qiladi. Shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy 10 ta omil o'rganilgan hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, talaba, ota-ona, tyutor, pedagogik madaniyat.

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy muhitning sog'lomligini ta'minlash, yoshlarni ulug' maqsadlar sari sobitqadam etib tarbiyalash, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'lida xizmat qilishga oid ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning hayotiy tajribalarini izchil oshirib borishda milliy tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Talabalarning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy –tarbiyaviy masalasi har qanday jamiyat, har qanday mamlakatning kelajak taqdirini belgilovchi masaladir. Shu bois ushbu masala oila tarbiyasida ustuvor hisoblanadi. Zero, ta'lim-tarbiya masalasi ustuvor ahamiyat kasb etgan oilalar rivojlanadi, barcha jabhalarda taraqqiy etadi. Aynan ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bois oilada moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, farovonlik oshadi. Bundan mamlakat har tomonlama yuksalib boradi. O'zbek mentalitetida hozirga qadar sabr-toqatlilik, itoat va mehr-oqibatlilik qadrlanadi. Shu sabab ota-onalarning ko'pchiligi 70% farzandlarining sabr-toqatli, itoatli va mehr-oqibatli bo'lishini ho'xlaydi. O'zbek oilasida kelishuvchanlik, buysinuvchanlik, itoatkorlik xislatlarining shakllanishiga shart-sharoitlar yaratilishi psixologik tadqiqotlarda ham tasdig'ini topdi. Afsuski keyingi yillarda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa, globallashuv jarayonlari oilaviy, shu jumladan farzand tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. O'zbek oilasida ota-onalarning farzandlar bilan bo'lgan munosabatlarida ota mavqei muhim o'rin tutgan. O'rganilayotgan davr kesimida o'zbek oilasida otaning o'rni, maqomi va ota sifatidagi mavqei turli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda o'zgargan. An'anaviy oilalarda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda otaning avtoritar yetakchiligidan avtoritet boshqaruviga o'tishga asoslangan bo'lsa, zamonaviy oilalarda ota avtoritet boshqaruvidan ota-onaning teng hamkorligiga asoslangan oilalarga o'tilgan. So'ngi yillarda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari oilaviy munosabatlar, shu jumladan ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda ham o'z aksini topmoqda. Shu bois ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirishda: Ota onalarga talabalar tarbiyasi,



tarbiya metodlari haqida tushuncha berish. ya'ni ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar, odatlantirish va mashq, rag'batlantirish va jazolash metodlaridan o'z o'rnida, to'g'ri foydalanish haqida ma'lumot berish; tarbiya vositalari haqida ma'lumotlar berish, ya'ni qo'l telefonlari, kompyuterlar, seriallarning salbiy tomonlari haqida ma'lumotlar berish; yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishuvda axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, aqliy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya berish yo'llari haqida ma'lumot berish zarur. Ota-onalarning pedagogik madaniyati (keng ijtimoiy-pedagogik ma'noda) bu insoniyatning butun tarixida insoniyat tomonidan olgan tajribasini aks ettiruvchi insoniyat madaniyatining ajralmas qismidir. Ota-onalarning pedagogik madaniyati ostida (tor pedagogik ma'noda) Bu ularning etuklik darajasini o'qituvchi sifatida aks ettiruvchi va oilaviy va xalq ta'limi jarayonida namoyon bo'ladigan pedagogik yo'naltirilgan pedagogik fokusning darajasi deb tushuniladi. Bir tomondan, pedagogik madaniyat jamiyatdagi ijtimoiy-pedagogik tajribada rivojlangan shaxsning boshqa faoliyatida amalga oshirilgan - ushbu tajribani kundalik faoliyatni amalga oshirish uchun o'zlashtirish darajasini aks ettiradi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, oilada ota-onaning o'rnini, OTM larda esa tyutor shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda. Tyutorga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar turli xilda ijtimoiy kuzatuvlar, pedagogning individual mahorati hozirligi tyutorning kasbiy pedagogik faoliyatiga bo'lgan mas'uliyatini ko'rsatadi. Muhimi, zamonaviy tyutor uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlar tarbiya jarayonining kesimida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi sharoitda jamiyatning OTM oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi tyutor zimmasiga yuklangan. Zamonaviy OTM tyutori qator vazifalarni bajaradi. Tyutor guruhdagi ma'naviy muhit jarayonini tashkilotchisidir. U talabalar uchun ma'naviyat soatlarida, talabalar bilan davra suhbatlarida kerakli maslahatlar berishda bilim va tarbiya yetakchisidir. Aksariyat tyutorlar guruhida rahbarilik vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari vazifasini sidqidildan bajarib kelmoqda. Zamonaviy tyutor ijtimoiy-psixologiyani bilmasligi mumkin emas, ammo tyutor talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, talabalar jamoasida ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lom holda saqlay bilishi zarur. Demak, tyutor oldiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi, tyutorning shaxsi va kasbi bilan bog'liq vazifalarga hamda shaxsiy xislatlariga qaratilgan. Shu bois har bir tyutor ana shu talablarga puxta javob bera oladigan bo'lishga intilishi shart. Tyutor jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda, o'z faoliyatida tevarak-atrofdagi kishilar, OTM ma'muriyati, hamkasblari, talabalar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutayotganligini unutmasligi lozim. Afsuski ota onalar bilan ishlashda tyutorlarda yetarlicha pedagogik kompetensiyalarning yetishmasligi yoki ishga layoqatsizligi nataijasida turli xil ayanchli yakun bilan tugovchi voqealar ham yo'q emas. Ota-onalar tyutordan ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarini oqilona va odilona tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. Oliy ta'limga qadam qo'ygan talabalar hayotida yangi bosqich boshlanadi. Ular oila



muhitini tark etib, mustaqil hayot va ta'lim muhitiga qadam qo'yadi. Ayrim talabalar o'z uylaridan, yana ayrimlari ijara xonadonlari va talabalar yotoqxonalaridan o'qishga qatnay boshlaydilar. Bu jarayonda talabalarning ota-onalari bilan munosabati alohida o'rin tutadi. Bunda ijobiy munosabatlarga sabab bo'luvchi omillar: 1. O'zaro ishonch. Ota-onaning farzandiga ishonishi, uning o'zini mas'ul va mustaqil his qilishini ta'minlaydi. Talaba farzandiga ishonch bildirib, uni mustaqil qaror qabul qilishga qodir deb bilsa, munosabat mustahkam va ijobiy bo'ladi. 2. Muntazam muloqot. Ota-onalar talaba farzandlari bilan doimiy aloqa saqlash, o'zaro yaqinlikni oshiradi, masofani sezilmas qiladi. Telefon, messenjerlar yoki videoaloqa orqali doimiy muloqot, ham dardlashish, ham maslahatlashish munosabatlarni yaqinlashtiradi. 3. Ota-onalarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlashlari. Talabalarda ruhiy barqarorlik va o'qishga bo'lgan qiziqish ortishiga xizmat qiladi. Talabada ishonch va rag'bat uyg'otadi. 4. Shaxsiy hayotga hurmat. Ota-onalar farzandining shaxsiy hayoti va qarorlariga hurmat bilan yondashsa, qaror qabul qilish imkoniyati berilsa, ularning ota-onasiga nisbatan ishonchi mustahkamlanadi, bu yerda yaxshi munosabat yuzaga keladi. 5. Ta'lim jarayoniga qiziqish. Ota-onalar farzandining farzandining o'qishi, fanlarga qiziqishi, ta'limdagi yutuqlari bilan qiziqsa talabada mas'uliyat hissi kuchayadi. Salbiy munosabatlarga sabab bo'luvchi omillar: 1. Haddan tashqari nazorat. Ota-onalar ba'zan talaba farzandi erkinligini cheklashi va miqyossiz talablar qo'yishi oqibatida salbiy munosabat keltirib chiqaradi. 2. Muloqot yetishmasligi. Aloqaning uzilishi yoki vaqt kamligi tufayli ota-ona va farzand o'rtasida xato tushunishlar, befarqlik yuzaga keladi. Ota-ona va farzand o'rtasida munosabatning susayishi tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi. 3. Qattiq tanqid va solishtirish. Ta'na dashnomlar va salbiy fikrlar talabaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. 4. Moddiy yordamning yo'qligi yoki noaniqligi. Talabaning ehtiyojlarini inkor qilish ota-onaga nisbatan manfiy munosabat shakllantiradi. 5. Shaxsiy fikrga e'tiborsizlik. Ota-onaning bir yoqlama qarorlari va farzand fikrini inkor etishi munosabatlarda yoriq paydo qiladi. Ota-onalar faqat o'z fikrini to'g'ri deb hisoblab, farzandning fikrini inobatga olmasa, bu yerda salbiy munosabatlar yuzaga keladi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning ota-onalari bilan munosabati nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Bu munosabatlarni samarali yo'lga qo'yish uchun: Ta'lim muassasalari tomonidan ota-onalar uchun seminarlar o'tkazilishi; Talabalar va ota-onalar o'rtasida faol muloqot mexanizmlari (onlayn platforma, maslahat guruhlari yaratilishi; Ota-onalarga pedagogik va psixologik maslahatlar taqdim etilishi zarur hisoblanadi. Shundagina talabaning ta'lim jarayoni muvaffaqiyatli va barqaror bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz// Toshkent: —O'zbekiston NMIU, 2017. – 482 b.
3. Arnautova E. P. Ota-onalar bilan aloqa: Nega? Qanday? M., 1993 yil. 208 b
4. Golovinova N. Oila - umumiy parvarish. M.: UTS "Istiqbol", 2010 yil. 136 b
6. Malikova D.Q. "Z avlod demografik va pedagogik konvergensiya kontekstida". European Journal of Interdisciplinary Research and Development, (2023).18,55-61.



7. Normurodov, SH. Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda ota-onalarning o‘rni. “Pedagogika fanlari” jurnali, (2019). №3, 56–61-b
8. Malikova D.Q. Xorijiy mamlakatlarda tyutorlik modellari rivojlanishining komparativ pedagogik xususiyatlari. Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, (2022). 2(6), 654-657



XALQARO TAJRIBADA MAKTABGACHA TA'LIMDA CHET TILINI O'QITISH MODELLARI

Uralova Dilfuza Saydaliyevna

Karabayeva Shoirra

Guliston davlat universiteti

dilfuza.uralova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro tajribada maktabgacha ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish modellari tahlil qilingan. Turli davlatlarda qo'llanilayotgan kommunikativ, bilingval va o'yin texnologiyalariga asoslangan yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, chet tilini erta yoshdan o'qitishning samarali usullari va ularning bolalar kognitiv rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, chet tili, bilingval ta'lim, kommunikativ metod, interfaol texnologiya, xalqaro tajriba.

Kirish: Bugungi kunda chet tillarini o'rganish ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'limda chet tilini o'qitish bolalarning nutqiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlarda bu jarayon kommunikativ va o'yin texnologiyalariga asoslangan modellar orqali amalga oshirilmoqda. Shuning uchun xalqaro tajribani milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'limda chet tilini o'qitishning xalqaro modellari

Kommunikativ model

Kommunikativ model Angliya va Germaniya ta'lim tizimida keng qo'llaniladi. Uning asosiy maqsadi bolalarda chet tilida erkin muloqot ko'nikmasini shakllantirishdir. Darslarda o'yinlar, suhbatlar, rolli o'yinlar hamda qo'shiq va she'rlardan foydalaniladi. Bu usul eshitish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bilingval ta'lim modeli

Bilingval model Kanada, Finlyandiya va Shveysariyada keng tarqalgan. Unda ikki til bir vaqtning o'zida qo'llaniladi. Bu yondashuv til muhitini yaratib, bolalarning kognitiv qobiliyatlari, xotirasi va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

O'yin texnologiyalariga asoslangan model

Yaponiya va Janubiy Koreyada maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalariga asoslangan chet tilini o'qitish keng qo'llaniladi. Unda multfilmlar, interaktiv o'yinlar va vizual materiallardan foydalaniladi. Bu usul bolalarning chet tiliga qiziqishini oshirib, so'z boyligini rivojlantiradi.

CLIL modeli

CLIL (Content and Language Integrated Learning) modeli Yevropa mamlakatlarida ommalashgan bo'lib, u fan va tilni integratsiyalash asosida amalga oshiriladi. Masalan, bolalar ranglar, hayvonlar yoki tabiat haqidagi bilimlarni chet tili orqali o'rganadilar.



Bu model: til va bilish jarayonlarini birlashtiradi; amaliy nutqni rivojlantiradi; bolalarning fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Xalqaro tajribaning pedagogik ahamiyati

Xalqaro tajribaga ko'ra, maktabgacha yoshda chet tilini o'qitishda bolaning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Qiziqarli va interaktiv darslar, kommunikativ muhit, o'yin texnologiyalari hamda audio-vizual vositalar ta'lim samaradorligini oshiradi. Xalqaro modellarda asosiy e'tibor erkin muloqot va tabiiy til muhitini yaratishga qaratilgan.

Natijalar va muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'limda chet tilini o'qitishda interfaol va kommunikativ metodlar samarali natija bermoqda. Ayniqsa, bilingval va CLIL modellari bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalarning nutqiy faolligi va lug'at boyligi tez rivojlanishi kuzatildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajribada maktabgacha ta'limda chet tilini o'qitishning kommunikativ, bilingval va o'yin texnologiyalariga asoslangan samarali modellari qo'llaniladi. Ushbu tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish milliy ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford, 1982.
2. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2007.
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London, 2001.
4. Richards J. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge University Press, 2006.
5. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge University Press, 2001.
6. Uralova, D. S. (2026). METHODS OF TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN. *YANGI RENESSANS*, 3(2), 51-53.



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

REVMATOID ARTRIT VA QANDSIZ DIABET BILAN KASALLANGAN
BEMORLARDA PARODONTITNI DAVOLASHNING FANLARARO
ALGORITMI

Durdiyeva U.B.

*“Nafis Nur Dent” stomatologiya klinikasi,
Toshkent*

Kalit soʻzlar: parodontit, revmatoid artrit, qandsiz diabet, diabetes insipidus, fanlararo algoritm, kserostomiya, Langergans hujayralari gistiotsitozi, desmopressin, DAS28.

Kirish. Parodontit, revmatoid artrit (RA) va qandsiz diabet (diabetes insipidus, DI) bir-biridan etiologik jihatdan farq qilsa-da, klinik amaliyotda tez-tez bir-biriga uygʻunlashib, anʼanaviy davolash usullariga past javob beradigan komorbid holatlarni hosil qiladi. RA da surunkali tizimli yalligʻlanish (FNO- α , IL-6, IL-17) parodontning destruksiyasini kuchaytiradi va parodontit, oʻz navbatida, sitrullinlangan antigenlar manbai sifatida RA faolligini DAS28 indeksi boʻyicha oshiradi. Qandsiz diabet (DI) da esa poliuriya tufayli rivojlanadigan kserostomiya ogʻiz boʻshligʻi mikrobiotasini buzib, parodont infeksiyasi va karies xavfini sezilarli darajada oshiradi; bundan tashqari, DI Langergans hujayralari gistiotsitozining (LCH) eng koʻp uchraydigan doimiy markaziy nerv tizimi oqibati boʻlib, jagʻ suyaklarining destruksiyasi (“suzuvchi tishlar”) koʻpincha tizimli simptomlardan oldin namoyon boʻladi. Bunday murakkab patogenetik bogʻliqlik faqat stomatolog yoki faqat ichki kasalliklar shifokori tomonidan emas, balki fanlararo jamoa tomonidan koʻrib chiqilishi kerak.

Maqsad. Revmatoid artrit va qandsiz diabet (markaziy va nefrogen DI) bilan kasallangan komorbid bemorlarni olib borish boʻyicha ilmiy asoslangan fanlararo algoritmni ishlab chiqish; algoritm tarkibida stomatolog, revmatolog va endokrinolog rollarini aniq belgilash; LCH ni erta aniqlashda stomatologning sentinel-funksiyasini asoslash.

Materiallar va usullar. 2010–2025 yillar oraligʻidagi xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi: Yevropa parodontologiya federatsiyasi (EFP) va Amerika parodontologiya akademiyasi (AAP) ning qoʻshma tavsiyalari, Cochrane meta-analizi, ESPERA va boshqa randomizatsiyalangan tadqiqotlar, LCH boʻyicha DALHX va LCH-I/II registr maʼlumotlari (jami $n = 1741$), DI patogenezi va davolanishi boʻyicha tizimli sharhlar (PubMed, PMC, ScienceDirect manbalari). Algoritmni shakllantirishda dalillarning darajasi (Oxford Centre for Evidence-Based Medicine), tavsiyalarning kuchi va klinik amaliyotga moslashuvi hisobga olindi.

Natijalar. Ishlab chiqilgan algoritm uch ketma-ket bosqichdan iborat va har bir bosqichda fanlararo hamkorlik aniq belgilangan.



(1) Skrining va erta aniqlash bosqichi. Stomatolog birlamchi qabulda tizim kasalliklari belgilarini izlaydi: doimiy og‘iz quruqligi (kserostomiya), kuchli tashnalik va ko‘p suyuqlik iste‘moli (polidipsiya), tez-tez tunda siyish (nikturiya), ko‘p paydo bo‘ladigan abscesslar, gingival giperplaziya, tishlarning sababsiz harakatchanligi va yoshlarda “suzuvchi tishlar” rentgenologik manzarasi. Bunday belgilar mavjudligida bemor plazma osmolyariligi, siydik osmolyariligi, su‘v-ovqat sinovi (water deprivation test), CRP, ASL-O va to‘liq qon tahliliga yo‘naltiriladi; rentgenologik shubha bo‘lsa - jag‘ CT/MRT va LCH ni istisno qilish uchun gistologik tekshiruv (CD1a, langerin/CD207 immunogistokimyo) tavsiya etiladi. Revmatolog va endokrinolog, o‘z navbatida, RA yoki DI tashxisi qo‘yilgan har bir bemorni stomatologik ko‘rikdan o‘tkazib, parodontologga yo‘naltirishi kerak - bu xizmat 2018-yilgi EFP/AAP qo‘shma klassifikatsiyasiga ko‘ra majburiy hisoblanadi.

(2) Asosiy parodontal davolash bosqichi. “Oltin standart” - nehirurgik mexanik davolash (scaling and root planing, SRP) bo‘lib, komorbid bemorlarda u har 3–4 oyda qo‘llab-quvvatlovchi terapiya (SPT) rejimida o‘tkaziladi. Antimikrob fotodinamik terapiya (aPDT) gipoksiya va mikroangiopatiya sharoitida (xususan, DI tufayli kserostomiya bilan birgalikda) tizim antibiotiklari yetib bormaydigan zonalarda samarali. RA bilan og‘ir parodontiti bo‘lgan bemorlarda full-mouth disinfection protokoli ko‘rib chiqiladi: bu yondashuv DAS28 ni 0,4–1,1 ballga kamaytirishi mumkin. Biologik terapiya (FNO- α , IL-6 ingibitorlari) qabul qilayotgan bemorlarda agressiv jarrohlik aralashuvlardan oldin infeksiyon xavfni baholash zarur, ammo SRP odatda xavfsiz hisoblanadi.

(3) Adyuvant va patogenetik davolash bosqichi. Antioksidantlar (resveratrol, kvercetin, melatonin, N-atsetilsistein, likopin) tizimli oksidlovchi stressni kamaytiradi va parodontning reparativ salohiyatini oshiradi. Lactobacillus reuteri probiotiklari og‘iz bo‘shlig‘i mikrobiotasini muvozanatlashtiradi va patogen Gram-manfiy anaeroblarning ulushini kamaytiradi. Doksitsiklinning subantimikrob dozalari (SDD, 20 mg kuniga 2 mahal) MMP-8 va MMP-9 faolligini ingibe qilib, kollagen destruksiyasini sekinlashtiradi - bu mexanizm RA bilan bog‘liq parodontitda ayniqsa qimmatli. RA bemorlarida metotreksat va biologik preparatlar (adalimumab, tocilizumab) parodontning holatini bilvosita yaxshilaydi: PPD, BOP va PISA indeksleri pasayadi.

DI bilan kasallangan bemorlar uchun maxsus mulohazalar. Markaziy DI da desmopressin (dDAVP) terapiyasi V2-retseptor/cAMP yo‘li orqali azot oksidi (NO) ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va shu tariqa gingival mikrotsirkulyatsiyani yaxshilaydi; bu ta’sir DI bemorlarida endotelial yallig‘lanish markerlarini (IL-6, ICAM-1) ko‘tarmasligi muhim afzallikdir. Kserostomiyaga qarshi sun‘iy tupurik o‘rnini bosuvchi vositalar, tupurikni rag‘batlantiruvchi preparatlar (pilocarpin, sevimelin - ehtiyotkorlik bilan) va og‘iz bo‘shlig‘i gigienasiga oid maxsus tavsiyalar (ftor, ksilitol mavjud preparatlar) berilishi shart. Irsiy nefrogen DI bemorlarida yuqori suv iste‘moli sababli ftorli suvni qo‘llash dental flyuoroz xavfini oshiradi - bunday bemorlarda emallaydigan vositalarni tanlashda ftorning umumiy dozasi nazorat qilinishi kerak. Yoshlarda parodontitni eslatuvchi alveolyar destruksiya va



“suzuvchi tishlar” manzarasi LCH ni istisno qilmaguncha standart parodontologik davolanish bilan cheklanmasligi kerak.

Xulosa. Stomatolog, revmatolog va endokrinolog hamkorligida ishlab chiqilgan ushbu fanlararo algoritm parodontal davolash samaradorligini oshiradi, RA faolligini DAS28 bo‘yicha kamaytiradi va qandsiz diabet bilan kasallangan bemorlarda LCH ni erta aniqlash imkonini beradi. Stomatologning roli oddiy “tish davolash” doirasidan chiqib, surunkali tizimli yallig‘lanish va potensial xavfli endokrin patologiyalarni erta aniqlovchi sentinel-shifokor maqomiga ko‘tariladi. Bunday yondashuv komorbid bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va surunkali yallig‘lanish yukini kamaytiradi. Algoritmni amaliyotga joriy etish uchun stomatologlar uchun maxsus o‘quv modullari, klinik protokollarni standartlashtirish va RA hamda DI bo‘yicha mavjud milliy klinik tavsiyalarga parodontologik komponentni kiritish zarur.



PREEKLAMPSIYA FONIDA TUG'ILGAN CHAQALOQLAR ERTA NEONATAL DAVRDA BUYRAK USTI BEZINING MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI

Jumanazarova Yulduz Alisher qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Patologik anatomiya kafedrası

1-kurs magistri

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Allaberganov D.Sh.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

АННОТАЦИЯ: Жаҳонда ташхислаш ва даволаш усуллари мунтазам такомиллаштирилиб борилаётгани, турли консерватив даволаш усулларининг пайдо бўлаётганига қарамай, оториноларингологияда эндокрин патологияси бўлган беморларда вазомотор ринит ҳолатлари доимий равишда учраб турмоқда. Тадқиқот мақсади бўлиб тиреотоксикоз фонида вазомотор ринит бўлган беморларда бурун шиллиқ қавати функционал хусусиятларини баҳолаш ҳисобланади. Андижон давлат тиббиёт институти клиникасида тиреотоксикоз ташхиси билан ётиб даволанган 18-65 ёшдаги 75 нафар беморлар тадқиқотга киритилди. Хулоса қилиб айтганда, тиреотоксикоз фонида вазомотор ринит бўлган беморларда бурун шиллиқ қавати функционал кўрсаткичлари сусаяди ҳамда касалликнинг кечишини оғирлаштиради.

КАЛИТ СЎЗЛАР: тиреотоксикоз, вазомотор ринит, клиника, функционал текширувлар, мукоцилиар клиренс, ташхислаш.

Вазомотор ринит оториноларингологиянинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб, барча ёш гуруҳидаги одамлар мойил бўлган энг кенг тарқалган ЛОР касалликларидан биридир [1,4,6,7,10]. Юқори нафас йўллари касалликларининг қалқонсимон без патологияси билан боғлиқлиги, асосан, симптоматик хусусиятлар, бурун бўшлиғи, ҳалқум ва қулоқларнинг объектив кўриниши ва бурун шиллиқ қаватининг функционал бузилишларининг табиати долзарб ҳисобланади [2,3,5,8,9].

Тадқиқот мақсади бўлиб тиреотоксикоз фонида вазомотор ринит бўлган беморларда бурун шиллиқ қавати функционал хусусиятларини баҳолаш ҳисобланади.

Тадқиқот материали ва усуллари. Андижон давлат тиббиёт институти клиникасида тиреотоксикоз ташхиси билан ётиб даволанган 18-65 ёшдаги 75 нафар беморлар тадқиқотга киритилди. Назорат гуруҳини 20 нафар амалий соғлом беморлар ташкил қилди. Барча беморлар комплекс текширувдан ўтказилди ва олинган натижалар статистик жиҳатдан ҳисобланди.

Тадқиқот натижалари ва уларни муҳокамаси. Тиреотоксикоз билан бирга кечадиган вазомотор ринит касаллигига чалинган 75 нафар беморда қон босими, пульс ва вегетатив синамалар (Ашнер-Данини кўз-юрак рефлекси, орто-клиностатик синамалар) маълумотлари таҳлил қилинганда, 45 нафар



(60,0%) беморда пульс бир дақиқада $6,3 \pm 0,3$ зарбага тезлашиши билан парадоксал реакция аниқланди. 16 нафар (21,5%) беморда пулсинг дақиқасига $14,6 \pm 0,6$ зарбага секинлашиши кузатилди. Қолган 14 нафар (18,6%) беморда эса реакция меъёрда бўлди.

Ортостатик синама натижалари текширилганларнинг 42 (55,4%) нафарида пульсинг дақиқасига 30-38 та зарбага тезлашиши, 20 (26,6%) нафарида пульсинг дақиқасига 26-30 зарбага ўртача тезлашиши мавжудлигини кўрсатди, қолган 14 (18,6%) нафарида ушбу синаманинг кўрсаткичлари рухсат этилган меъёр чегарасида бўлди.

Клиноостатик синамани ўрганиш шуни кўрсатдики, 47 та (62,6%) ҳолатда парадоксал реакция, яъни пульсинг секинлашиши ўрнига дақиқасига $8,3 \pm 1,15$ зарбага тезлашиши кузатилди. 21 нафар беморда пульсинг дақиқасига 3-4 зарбага секинлашиши кузатилди, қолган 7 нафарида - реакция меъёрда бўлди. 75 нафар беморнинг 40 нафарида (53,3%) артериал босим кўтарилди, систолик босим 150-160 мм симоб устуни, диастолик босим 95-100 мм симоб устуни атрофида бўлди. 12 нафар (16%) беморда ўртача артериал гипотония аниқланди: систолик босим 90-95 мм симоб устунига, диастолик босим 60-65 мм симоб устунига тўғри келди. Қолган 23 нафар (30,6%) беморда артериал босими физиологик меъёр чегарасида бўлди.

Дастлабки ҳолатда (тинч ҳолатда) юрак уришининг тезлашиши 47 нафар (62,6%) беморда қайд этилди, қолган 28 нафар (37,3%) беморда кўрсаткич ёш меъёрида бўлди.

Шундай қилиб, вегетатив реакцияларни бирламчи ўрганиш натижалари беморларнинг кўпчилигида симпатик тонус устунлиги билан вегетатив дистония мавжудлигини кўрсатди. Вегетатив дистония синдроми тажрибали невролог маслаҳати билан ҳам тасдиқланди.

Бурун шиллиқ қаватининг сезувчанлигини текшириш 75 нафар беморнинг 42 тасида (56%) патологик юқори сезувчанликни, 22 тасида (29,3%) сезувчанлик пасайганлигини, қолганларида эса нормал ҳолатни аниқлади.

Тиреотоксикоз билан боғлиқ вазомотор ринит билан оғриган беморларда шиллиқ қаватнинг сезувчанлик ҳолатини ўрганиш натижаси асаб тизими вегетатив бўлимининг яққол дисфункцияси мавжудлигини тасдиқловчи кўшимча далил ҳисобланади.

Кўриб чиқиладиган гуруҳнинг барча 75 нафар беморида бурун бўшлиғининг функционал ҳолатини бирламчи ўрганиш натижалари буруннинг турли функцияларида маълум бир бузилишлар борлигини кўрсатди.

Бурун ажралмасининг дастлабки рН кўрсаткичлари ($7,7 \pm 0,04$) реакциянинг ишқорий муҳит томонга силжиганлигини кўрсатди. Сахариннинг пастки бурун чиғаноғининг олд қисмидан халқумга ўтиш вақти $31,0 \pm 2,6$ дақиқани ташкил этди, меъёрда бу кўрсаткич $23 \pm 1,2$ дақиқани ташкил қилади. Глацели кўзгусида терлаш майдони буруннинг ўнг ярми учун $4,5 \pm 0,36$ см ва чап ярми учун $4,31 \pm 0,4$ см ни ташкил этди, меъёрда бу $9,0 \pm 0,35$ см га тенг. Буруннинг нафас олиш функциясини ўрганиш маълумотлари текширилган



беморларда бурун орқали нафас олишнинг доимий бузилиши мавжудлигини кўрсатди.

Буруннинг ҳид билиш функциясини ўрганишнинг бирламчи натижалари - минимал сезиш бўсағаси ($10,0 \pm 0,43$ см) ва таниб олиш бўсағаси ($13,8 \pm 0,61$ см) ҳид билиш бўсағалари ошганлигини, яъни гипосмия мавжудлигини кўрсатади.

Барча текширилганларда бурун шиллиқ қаватининг ҳарорати меъёр чегарасида бўлиб, физиологик меъёр $34,35 \pm 0,7^\circ\text{C}$ бўлганда $33,85$ дан $34,35^\circ\text{C}$ гача ўзгариб турди.

Хулоса қилиб айтганда, тиреотоксикоз фонида вазомотор ринит бўлган беморларда бурун шиллиқ қавати функционал кўрсаткичлари сусаяди ҳамда касалликнинг кечишини оғирлаштиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гарюк Г. И., Харченко Е. И., Гарюк О. Г. Клиника, диагностика и принципы лечения хронического вазомоторного ринита //Проблеми безперервної медичної освіти та науки. – 2015. – №. 4. – С. 63-68.
2. Долина И. В., Буцель А. Ч. Изменение гормонального статуса как причина вазомоторного ринита //Оториноларингология. Восточная Европа. – 2012. – №. 2. – С. 123-124.
3. Крюков А. И. и др. Современные аспекты хирургического лечения вазомоторного ринита //Российская ринология. – 2017. – Т. 25. – №. 2. – С. 10-14.
4. Нурова Г. У. Особенности течения вазомоторного ринита у больных с нарушениями функции щитовидной железы //Актуальные вопросы медицины критических состояний. – 2021. – С. 54-55.
5. Allam M. M. et al. Association between allergic rhinitis and development of autoimmune thyroid diseases in Egyptian patients //BMC Endocrine Disorders. – 2024. – Т. 24. – №. 1. – С. 202.
6. Choi H. G. et al. Thyroid diseases and chronic rhinosinusitis: A nested case-control study using a national health screening cohort //International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2022. – Т. 19. – №. 14. – С. 8372.
7. Degirmenci P. B. et al. Allergic rhinitis and its relationship with autoimmune thyroid diseases //American Journal of Rhinology & Allergy. – 2018. – Т. 24. – №. 4. – С. 247-251.
8. Guo W., Yue C., Gu L. How Allergic Rhinitis Affects Thyroid Autoimmunity: A Systematic Evaluation and Meta-Analysis //International Journal of Pharmacology. – 2024. – Т. 20. – №. 5. – С. 709-717.
9. Kulekci Ozturk S., Sakci E., Kavvasoglu C. Rhinitis in patients with acquired hypothyroidism //European Archives of Oto-Rhino-Laryngology. – 2021. – Т. 278. – №. 1. – С. 87-92.
10. Nasser A. Relationship between rhinitis, nasal obstruction and hypothyroidism: a follow up study with pre-post treatment with levothyroxine



//Indian Journal of Otolaryngology and Head & Neck Surgery. – 2023. – Т. 75. – №. 3. – С. 1394-1398.



ТИРЕОТОКСИКОЗ ФОНИДА ВАЗОМОТОР РИНИТ ЭНДОСКОПИК ТЕКШИРУВ НАТИЖАЛАРИ

Мўминов Санжар Хайруллаевич
Мустақил изланувчи
Андижон давлат тиббиёт институти
bonussha-uz@list.ru

АННОТАЦИЯ: Қалқонсимон без дисфункциясида ЛОР аъзоларида физиологик меърдан бир қатор сезиларли оғишлар кузатилади, бу қалқонсимон без гормонларининг юқори нафас йўллари функционал ҳолатига таъсиридан далолат беради. Тадқиқот мақсади бўлиб тиреотоксикоз фонида вазомотор ринит бўлган беморларда эндоскопик текширув натижаларини баҳолаш ҳисобланади. Андижон давлат тиббиёт институти клиникасида тиреотоксикоз ташхиси билан ётиб даволанган 18-65 ёшдаги 75 нафар беморлар тадқиқотга киритилди. Хулоса қилиб айтганда, тиреотоксикоз фонида вазомотор ринит бўлган беморларда бурун шиллиқ қаватида вазомотор ринитга хос бўлган белгиларнинг кучайиши кузатилади.

КАЛИТ СЎЗЛАР: тиреотоксикоз, вазомотор ринит, клиника, эндоскопик текширув, ташхислаш.

Вазомотор ринит оториноларингологиянинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб, барча ёшдаги одамлар дуч келадиган энг кенг тарқалган ЛОР касалликларидан биридир [2,5,9]. Эндокрин касалликлари бор одамлар орасида ҳам вазомотор ринит кўп учрайди [3,5,7,8]. Вазомотор ринит муаммосининг долзарблиги нафақат ушбу касалликнинг юқорида қайд этилган хусусиятлари, балки ушбу муаммога бағишланган маҳаллий ва хорижий муаллифларнинг кўп сонли ишлари билан ҳам тасдиқланади [1,4,6,10].

Тадқиқот мақсади бўлиб тиреотоксикоз фонида вазомотор ринит бўлган беморларда эндоскопик текширув натижаларини баҳолаш ҳисобланади.

Тадқиқот материали ва усуллари. Андижон давлат тиббиёт институти клиникасида тиреотоксикоз ташхиси билан ётиб даволанган 18-65 ёшдаги 75 нафар беморлар тадқиқотга киритилди. Назорат гуруҳини 20 нафар амалий соғлом беморлар ташкил қилди. Барча беморлар комплекс текширувдан ўтказилди ва олинган натижалар статистик жиҳатдан ҳисобланди.

Тадқиқот натижалари ва уларни муҳокамаси. Тиреотоксикоз билан бирга кечадиган **вазомотор ринит** билан оғриган 75 нафар бемор кузатув остида бўлди. Клиникага ётқизилган беморлар турли хил кўплаб шикоятлар билдирди. Диффуз буқоқ билан бирга кечадиган **вазомотор ринит** билан оғриган беморларнинг асосий шикоятлари: бурун орқали нафас олишнинг қийинлашиши (доимий ёки томонларда алмашилиб турувчи), бурундан



ажралма оқиши, асабийлашиш ва мушаклар ҳолсизлиги, юрак уриши, ҳаддан ташқари терлаш, уйқунинг бузилиши бўлди.

Шикоятларнинг характери ва ўзига хос хусусиятларини баҳолашда шуни таъкидлаш жоизки, беморлар бурундан кўп миқдорда сероз ёки шиллик-сероз характердаги доимий ажралмалар келишини қайд этишди. Ушбу гуруҳдаги беморларнинг аксариятида доимий тахикардия ва юракнинг характерли иррадиациясиз оғриши кўп учрайдиган симптомлар бўлиб, бу эҳтимол кўшма касаллик туфайли юзага келган вегетатив асаб тизимининг бузилиши билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Беморларнинг ушбу гуруҳида юқори нафас йўллариининг эндоскопик текширувида, бурун шиллик қавати рангининг оч кўкимтирдан хира ранггача ўзгариши 93,3% беморларда, бурун ва ҳалқум шиллик қаватининг нотекис гиперемияси - 30,7%, бурун бўшлиғидаги ажралманиннг сероз ёки сероз-шиллик табиати - 80%, бурун чиғаноқларининг турли даражадаги шиши - 81,3%, танглай ёйлари ва тилчаниннг ўртача даражадаги шиши - 80% беморларда аниқланди. Обьектив манзараниннг кўп учрайдиган белгилари: бурун тўсиғи шиллик қаватининг ёстиқсимон бўртиб чиқиши, ҳалқум орқа деворида ва юмшоқ танглай соҳасидаги қон томирлар тўрининг кенгайиши хисобланди. Тиреотоксикоз билан текширилган 75 та бемордан 50 тасида (66,6%) қалқонсимон безнинг диффуз катталашуви, 12 тасида (16%) - диффуз-тугунли ва 13 тасида (18,6%) - кўп тугунли катталашув аниқланди. Ультратовуш текширувида кўпчилик беморларда (50 нафар - 66,6%) без тўқимаси экзогенлигининг пасайиши ва қон томирлар сонининг ортиши қайд этилди.

Хулоса қилиб айтганда, тиреотоксикоз фонидида вазомотор ринит бўлган беморларда бурун шиллик қаватида вазомотор ринитга хос бўлган белгиларнинг кучайиши кузатилади, бу касалликнинг қайталанишига сабаб бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Вириденко Н. Ю. и др. Вазомоторный ринит и аутоиммунная патология щитовидной железы: мультидисциплинарный подход //Сборник методических рекомендаций. – 2017. – С. 41-58.
2. Долина И. В., Буцель А. Ч. Изменение гормонального статуса как причина вазомоторного ринита //Оториноларингология. Восточная Европа. – 2012. – №. 2. – С. 123-124.
3. Николаева Ю Особенности течения вазомоторного ринита у больных с нарушениями функции щитовидной железы //Актуальные вопросы медицины критических состояний. – 2021. – С. 54-55.
4. Свириденко Н. Ю. и др. Вазомоторный ринит и аутоиммунная патология щитовидной железы: мультидисциплинарный подход //Сборник методических рекомендаций. – 2017. – С. 41-58.



5. Allam M. M. et al. Association between allergic rhinitis and development of autoimmune thyroid diseases in Egyptian patients //BMC Endocrine Disorders. – 2024. – Т. 24. – №. 1. – С. 202.
6. Choi H. G. et al. Thyroid diseases and chronic rhinosinusitis: A nested case–control study using a national health screening cohort //International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2022. – Т. 19. – №. 14. – С. 8372.
7. Degirmenci P. B. et al. Allergic rhinitis and its relationship with autoimmune thyroid diseases //American Journal of Rhinology & Allergy. – 2018. – Т. 24. – №. 4. – С. 247-251.
8. Guo W., Yue C., Gu L. How Allergic Rhinitis Affects Thyroid Autoimmunity: A Systematic Evaluation and Meta-Analysis //International Journal of Pharmacology. – 2024. – Т. 20. – №. 5. – С. 709-717.
9. Kulekci Ozturk S., Sakci E., Kavvasoglu C. Rhinitis in patients with acquired hypothyroidism //European Archives of Oto-Rhino-Laryngology. – 2021. – Т. 278. – №. 1. – С. 87-92.
10. Shek H. G. et al. Thyroid diseases and chronic rhinosinusitis: A nested case–control study using a national health screening cohort //International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2022. – Т. 19. – №. 14. – С. 8372.



**NEONATAL DAVRIDA TURLI XIL OVQATLANISH REJIMLARI
NATIJASIDA OVQAT HAZM QILISH TIZIMI VA JIGARDA
GISTOMORFOLOGIK O'ZGARISHLARNI EKSPERIMENTAL
O'RGANISH NATIJALARI.**

Usmonova Gulizora Baxtiyorovna –

Farg'ona viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot xodimi,
shifokor (MD), mustaqil tadqiqotchi
Elektron pochta: gulizorausmonova@gmail.com
ORCID: 0009-0007-9473-4986.

Mamasaidov Jamoliddin Turg'inboyevich –

Farg'ona viloyati ko'p tarmoqli
tibbiyot xodimi, shifokor.

Anotatsiya: Chaqaloqlarni ovqatlantirishga oid global standartlarga (JSST, ESPGHAN) qaramay, qo'shimcha ovqatlarni erta kiritish (3-4 oyligida) keng tarqalgan amaliyot bo'lib qolmoqda. Bunday erta aralashuv oshqozon-ichak trakti va jigarning morfofunktsional yetilmaganligi sababli ularning strukturaviy buzilishlariga olib kelishi mumkin. Bu jarayonlarni gistomorfologik darajada o'rganish katta ilmiy va klinik ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: postnatal ontogenez, vorsinkalar-kriptalar tizimi, sun'iy oziqlantirish, ichak to'sig'i, endotoksemiya, morfometriya.

Tadqiqot maqsadi. Turli xil oziqlantirish rejimlari (tabiiy, sun'iy va aralash) sharoitida, neonatal davr dinamikasida quyvonlar jigar, oshqozon va ichak to'qimalarining morfologik o'zgarishlarini qiyosiy-morfometrik tahlil qilish.

Material va usullar. Eksperimental tadqiqot 45 ta yangi tug'ilgan quyvonlarda olib borildi. Hayvonlar randomizatsiya usuli bilan 3 ta teng guruhga ajratildi (har birida $n=15$):

- **I guruh (nazorat):** Eksklyuziv tabiiy (ona suti bilan) oziqlantirish.
- **II guruh (eksperimental):** Sun'iy oziqlantirish (echki suti, qaymoq, tuxum sarig'i va glyukoza asosidagi muvozanatlashgan aralashma).
- **III guruh (eksperimental):** Aralash oziqlantirish (ona suti va sun'iy aralashma kombinatsiyasi).

Biopsiya namunalari hayotining 0, 7, 14, 21, 28 va 35-kunlarida (dinamikada) olindi. Gistologik kesmalar gematoksilin va eozin (H&E) bilan bo'yaldi. Olingan preparatlar yorug'lik mikroskopiyasi yordamida morfometrik va gistologik tahlildan o'tkazildi.

Natijalar. Postnatal ontogenezning dastlabki bosqichida (0-kun) ovqat hazm qilish tizimi a'zolarining funksional va strukturaviy yetuk emasligi aniqlandi; jigar parenximasida yaqqol namoyon bo'lgan ekstramedullar gematopoez o'choqlari saqlanib qolganligi kuzatildi.



- **Tabiiy oziqlantirish guruhi (I guruh):** Hayotning 7-21 kunlari oralig'ida ingichka ichak vorsinkalar-kriptalar tizimining jadal differensiallashuvi, enterotsitlar qavatining gistologik yaxlitligi va limfoid to'qimalarning fiziologik yetilishi qayd etildi. Postnatal rivojlanishning 35-kuniga kelib, a'zolarning to'liq differensiallashgan to'qima strukturasi shakllandi.
- **Sun'iy oziqlantirish guruhi (II guruh):** Ushbu guruhda organogenezning tormozlanishi va yaqqol patomorfologik o'zgarishlar verifikatsiya qilindi. Ichak shilliq qavatida vorsinkalar atrofiyasi, qadahsimon hujayralar giperplaziyasi va shilliq (musinga boy) sekretyaning giperproduksiyasi kuzatildi. Xususiy plastinka (*lamina propria*) sohasida neytrofil va limfo-plazmotsitar infiltratsiya aniqlanganligi o'tkir yallig'lanish jarayonidan dalolat beradi. Jigarda o't yo'llarining proliferatsiyasi (duktulyar reaksiya) va endotoksemiya oqibatida parenximaning reaktiv distrofik o'zgarishlari qayd etildi.
- **Aralash oziqlantirish guruhi (III guruh):** Ona suti tarkibidagi bioaktiv va himoya omillari sun'iy formulalar keltirib chiqargan destruktiv jarayonlarni qisman kompensatsiya qildi. Epiteliy yaxlitligi II guruhga nisbatan yuqori darajada saqlangan bo'lsa-da, sun'iy komponentlarning erda kiritilishiga javoban mahalliy immun tizimining reaktiv giperaktivlashuvi (limfoid follikulalar reaksiyasi) kuzatildi.

Xulosalar.

1. Ona suti neonatal davrda ovqat hazm qilish tizimining adekvat morfogenezini ta'minlovchi hamda to'qimalarni patologik infiltratsiyadan himoya qiluvchi asosiy fiziologik va immunologik omil hisoblanadi.
2. Sun'iy oziqlantirishga muddatidan oldin o'tish ichak to'sig'ining (*intestinal barrier*) strukturaviy buzilishiga olib keladi, bu esa destruktiv-atrofik o'zgarishlarni va jigarning tizimli reaktiv shikastlanishini induksiya qiladi.
3. Olingan eksperimental natijalar Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) go'daklarni dastlabki 6 oylik davrda eksklyuziv emizish hamda qo'shimcha ovqatlarni barvaqt kiritishdan saqlanish bo'yicha tavsiyalarining fundamental gistologik va sitomorfologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **Gidenne, T., Combes, S., & Fortun-Lamothe, L. (2013).** Quyonlar postnatal rivojlanish davrida ovqat hazm qilish tizimi fiziologiyasi va ichak mikrobiotasining shakllanishi. *Morfologiya va fiziologiya jurnali*, 185(3), 121-134.
2. **Ivanova, V. V., & Sidorova, K. A. (2022).** Postnatal ontogenezning dastlabki bosqichlarida quyonlar jigarining gistologik xususiyatlari. *Veteronariya morfologiyasi axborotnomasi*, 44(1), 58-64.
3. **Smith, A. J., & Taylor, M. R. (2022).** Yangi tug'ilgan quyonlarda oziqlantirish rejimi va sutdan ajratish davrida oshqozon hamda ichak epiteliysining differensiallashuvi. *Oziqlantirish va gistologiya muammolari*, 152(5), 1145-1156.
4. **Makovicky, P., Makovicky, P., & Tumova, E. (2023).** Erta oziqlantirish rejimlarining o'sayotgan quyonlar ingichka ichak morfometriyasiga (vorsinkalar



balandligi va kriptalar chuqurligiga) ta'siri. *Anatomiya, gistologiya va embriologiya*, 52(2), 241-249.

5. **Kovács, M., Szendrő, Z., & Milisits, G. (2018).** Turli xil oziqlantirish sharoitlarida emadigan quyonlarda ichak bilan bog'liq limfoid to'qimalarning (GALT) rivojlanishi. *Veterinar immunologiya va immunopatologiya*, 198, 45-53.
6. **Al-Sadi, H. I. (2022).** Erta postnatal hayot davrida quyon jigari gistogenezi va portal soha tuzilmalarining qiyosiy tahlili. *Morfologiya va gistologiya arxivi*, 36(4), 985-992.



УЎК: 616-091.5:612.82:578.834.1

COVID-19 БОШ МИЯ ИНТРАКРАНИАЛ ТОМИРЛАРИ ГИСТОКИМЁВИЙ ЎЗГАРИШЛАРИ

Эшбаев Э.А.,
Ходжаев Ш.Н.

*Тошкент Давлат Тиббиёт Университети,
Патологик Анатомия кафедраси
Тошкент, Ўзбекистон*

Аннотация: COVID-19да бош мия тўқимасида специфик ўзгаришлар бўлмасада, томирга алоқадор бўлган ўзгаришлардан асосий жихатлари, қон томирларда бир хил кўринишидаги тўлақонлик, томир деворларида мукоид бўкиш (албатта кичик калибрли томирлар ҳақида гап кетаяпти), периваскуляр сохаларда плазмаоррагия ва диапедез қон қуйилишлар, томир ички юзаси эндотелий қавати шикастланишилари аниқланади. Жумладан томир ички юзасида эндотелий хужайраларини кўчиб тушиши, эндотелиоз ўчоқлари, субэндотелиал қаватда оралиқ шишлар, мушак қаватидада интерстициал шишлар, турли даражада такомил топган лейкодиапедез ўчоқлари аниқланади. Бу эса, эндотелий шикастланиши, томирлар ўтказувчанлигини хаддан зиёд ошиб кетиши билан изоҳланади.

Калит сўзлар: COVID-19, патоморфология, бош мия интракраниал томирлар.

ГИСТОХИМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ СОСУДОВ ГОЛОВНОГО МОЗГА ПРИ COVID-19

Эшбаев Э.А.,
Ходжаев Ш.Н.

*Ташкентский государственный медицинский университет,
кафедра Патологической анатомии
Ташкент, Узбекистан*

Аннотация. Хотя в ткани головного мозга при COVID-19 не наблюдается специфических изменений, основными признаками сосудисто-ассоциированных нарушений являются равномерное полнокровие сосудов, мукоидное набухание их стенок (особенно сосудов мелкого калибра), периваскулярные плазморрагии и диапедезные кровоизлияния, а также повреждение эндотелиального слоя сосудистой стенки. В частности, выявляются десквамация эндотелиальных клеток с внутренней поверхности сосудов, очаги эндотелиоза, интерстициальные отеки в субэндотелиальном и мышечном слоях, а также очаги лейкодиапедеза на различных стадиях



развития. Эти изменения свидетельствуют о повреждении эндотелия, сопровождающемся чрезмерным повышением сосудистой проницаемости.

Ключевые слова: COVID-19, патоморфология, внутримозговые сосуды.

HISTOCHEMICAL CHANGES IN CEREBRAL VESSELS IN COVID-19

**Erkin A. Eshbaev,
Shakhzod N. Khodjaev**

*Tashkent State Medical University,
Department of Pathological Anatomy
Tashkent, Uzbekistan*

Abstract. Although no specific alterations are observed in the brain tissue in COVID-19, the main vascular-associated changes include uniform vascular congestion, mucoid swelling of the vessel walls (especially in small-caliber vessels), perivascular plasma leakage and diapedetic hemorrhages, as well as damage to the endothelial lining. In particular, desquamation of endothelial cells from the vascular surface, foci of endotheliosis, interstitial edema in the subendothelial and muscular layers, and foci of leukocyte diapedesis at various stages of development are detected. These findings indicate endothelial injury accompanied by excessively increased vascular permeability.

Keywords: COVID-19, pathomorphology, cerebral vessels.

Муаммони долзарблиги. Дунё аҳолисида COVID-19 пандемиясидан вафот этганлар сони 200млндан ортиқ инсонни бевақт оламда ўтишига олиб келган. COVID-19 да ер юзи аҳолисида асосан ўлимга олиб келувчи сабаблардан бири бу қон томирларни шикастланиши ва ЮИК, ЦВК, метаболик синдромда жами 125 млн инсонни ўлимига билвосита таъсир этиб, аксарият ушбу вафот этганларда SARS-CoV-2 аниқлангандир. COVID-19 пандемиясидан кейинги даврда ҳаётини муҳим аъзоларда қон томирларини шикастланиши, айниқса, бош миё, юрак, буйрак, ўпкаларни иккиламчи касалликлар таъсирида микроциркулятор ўзанда ўткир бузилишларга олиб келган. АҚШ ва Буюк Британияда COVID-19 да бош миёга қон қуйилиши билан 2020-2022 йил давомида ўртача, 2,1 млн аҳоли вафот этган бўлса, Европа давлатларида бу кўрсаткич 2020-2021 йилларда ўртача, 0,8 млн ни ташкил этган. Бу эса, COVID-19 да бош миё қон томирларида ўткир гемодинамик бузилишларни юзага келганлигини тасдиқлайди. Россия федерацияси ва МДХ давлатларида, COVID-19 инфицирланганларда оғир неврологик ўзгаришлар сабабли вафот этганлар 2020-2021 йилларда ўртача, 4,2млн ни ташкил этиб, асосий касаллик сифатида цереброваскуляр касалликлар келтирилган. Юқорида келтирилган SARS-CoV-2 инфицирланган организмда барча аъзолар қон томирларида ААФ-2 рецепторини фалажланиши, иккиламчи ёки билвосита зарарланган аъзоларда микроциркулятор ўзанда қон айланиши



бузилишига олиб келиши, эндотелий хужайраларни тизимли дисфункциясига олиб келганлиги аниқланган.

Тадқиқот мақсади. COVID-19-дан вафот этган беморлар бош мияси олдинги, ўрта ва орқа мия артериялар деворида ривожланган морфогенетик ва патоморфологик ўзгаришлар ҳақидаги маълумотларни ойдинлаштириш.

Тадқиқотнинг объекти. Тадқиқот материаллари сифатида 2020-2021 йилларда Республика патологик анатомия маркази Катталар патологияси бўлимида аутопсия текширувидан олинган аъзо-тўқималар ўрганилган. Тадқиқот гуруҳи сифатида коронавирус инфекциясидан вафот этган 31 ёшдан 75 ёшгача бўлган SARS-CoV-2 тасдиқланганлардан 107 та ҳолат аутопсиясида бош мия тўқимаси ва қон томирларидан материаллар олинган.

Тадқиқотнинг усуллари. COVID-19 дан вафот этган беморларнинг бош мия қон томирларини патологоанатомик хусусиятларини баҳолашда гистокимёвий усулда бўялди.

Натижа ва муҳокамалар. Бош мия интракраниал томирларида юзага келадиган метаболик ўзгаришлар оқибатида ривожланган патоморфологик сифат реакциялари бўлган Пентахром Массон бўёғи орқали ўрганилди. Трихром ва Пентахром массон орқали COVID-19 да томирларда қуйидаги ўзгаришлар аниқланди. Томирлар таркибидаги 5 та таркибий қисмлари: ядро, фибринли тузилмалар, коллаген толаларни баҳолаш, эластик толаларни баҳолаш, муцин/гликозаминогликанлар ёки нордон мукополисахаридларни миқдорий жиҳатлари ўрганилди. Жумладан, интракраниал томирлар субэндотелий қаватида массив ШИФФ мусбат тузилмалар нордон мукополисахаридларни бўлиши (хаво рангда) бўлиши аниқланди. Айнан, COVID-19 да бу каби нордон мукополисахаридларни тўпланиши специфик хос бўлмасида, томир деворида метаболик ўзгаришларни аксарияти айнан нордон муцин моддасини тўпланишидан бошланади. Бунга бевосита сабаб, томир деворидаги гипоксия жараёни ҳисобланади. Фибринли тузилмалар асосан қизил рангда бўялиши орқали томир девори эндотелий, субэндотелий, мушак қаватлари оралиғида ҳам аниқланди. Бу эса, томирдаги қоннинг реологик кўрсаткичларини ҳаддан зиёд ошиб кетиши оқибатида, ривожланган гиперкоагуляцияси фибриногенез жараёнини кучайганлигини тасдиқлайди. Натижада, эндотелий ва субэндотелий қаватларидаги фибриногенез тромбогенезни юзага келишни тасдиқлади. Айнан, майда калибрли интракраниал томирларни окклюзияси ва облитерацияси шу соҳадан таъминланадиган мия тўқимасида ишемик insultларни юзага келганлиги тасдиқлади. Коллаген толаларни бўялиши асосан, оч қизил сариқ рангда бўялиши орқали ифодаланиб COVID-19ни экссудатив даври бўлган 1-7 суткаларида суств шаклланганлиги билан характерланади. Тадқиқотимизда ўрганилган материалларни аксариятида COVID-19 ни аниқланган ёки хасталанган пайтидан бошлаб 14 сутка ичида вафот этганлар ўрганилган. Гистокимёвий текширишларда асосан фокус COVID-19да



гиперкоагуляцияда томир эндотелийси ва субэндотелий қаватларида массив тўпланган фибринли чўкмаларни такомил топганлиги аниқланади. Бу эса, клиник морфологик жихатдан қон зардобиди фибриногенни 2,5 баробарга ошиб кетганлигини тасдиқлайди. Натижада, томирларни кескин кенгайиши барча анатомик қаватларида плазмтик шимилишни юзага келиши ва фибриногенни фибринга айланганлигини тасдиқлади. Бу ҳам COVID-19 да асосан томирларни барча анатомик қаватларида толасимон тузилмалар ва фибриногенни кўп миқдорда томир деворларида тўпланиб қолганлигини тасдиқлади.

Мушак қавати оралиғидаги интерстициал шишлар эса, томирларни тонусини хаддан зиёд камайиши оқибатида, релаксацияга учрганлиги, тонусга сезгир соҳаларида қисқарганлиги миоцитларда ўчоқли контрактураларни шаклланишига олиб келганини тасдиқлайди.

Демак, COVID-19да томир деворининг қисқарувчанлиги массив бир хил кўринишда эмас, балки аралаш кўринишида бўлиб, мушакларни кескин қисқарувчанлиги сақланиши асосан миоцитларни қисқарувчанлигини ошган-лигини англатади.

Пентахром Массон орқали бўяшда томирлар деворидаги эластик толаларни тўқ жигаррангда титилган тўлқинсмон кўринишда акс этганлиги билан намоён бўлди. Сарик рангда коллаген ва ретикуляр толаларни тартибсиз жойлашганлиги, эндотелий юзаси, субэндотелий ва мушак қавати юзасида кўплаб чўкма кўринишида аниқланади. Субэндотелий қаватида тўқ жигар рангдаги дағал кўринишидаги толалар ва хужайралар аралашмаси асосан дегенерацияга учраган тўқима компонентлари билан биргаликда, турли даражада такомил топаётган тромбогенез ўчоқлари ҳам аниқланади. Демак, Пентахром массон орқали томирларни таркибий қисмлари бўлган толаларни деструкцияси, бўқиши, парчаланиши тартибсиз кўринишида чегара траекториясини ўзгариши билан давом этиши томирларда COVID-19 да морфофункционал бузилишлар билан давом этганлигини исботлайди.

Демак, гистокимёвий усулда Трихром ва Пентахром бўёқларда олинган маълумотлар тахлили бўйича COVID-19 да интракраниал томирлар деворида аксарият метаболик бузилишлар, нордон мухит, толалари тузилмаларни шикастланиши, эндотелий юзасида тромбогенез, томирларни стенози каби ўзагришларга олиб келганлиги юқорида ўз тасдиғини топди.

Хулоса.

Гистокимёвий текширишларда томирлардаги асосий ўзгаришлар трихром ва пентахром Массон бўйича, бош мия интракраниал томирларни барча анатомик қаватларида толали тузилмаларни шикастланиш устунлиги, коллагенолиз, эластолиз, фибринли тузилмаларга бой бўлган деструкцияланган стромал компонентларни кўпайганлиги аниқланди.



Фойдаланилган адабиётлар

1. Raffone A., Travaglino A., Saccone G., Alviggi C., Mascolo M., De Placido G., Insabato L., Mollo A., Zullo F. Management of women with atypical polypoid adenomyoma of the uterus: A quantitative systematic review. *Acta Obstet. Gynecol. Scand.* 2019;98:842–855.
2. Rowlands I.J., Abbott J.A., Montgomery G.W., Hockey R., Rogers P., Mishra G.D. Prevalence and incidence of endometriosis in Australian women: A data linkage cohort study. *Vjog.* 2020;128:657–665.
3. Singh P, Singh P, Chaurasia A, Dhingra V, Misra V. Expression of ER α and PR in Various Morphological Patterns of Abnormal Uterine Bleeding-Endometrial causes in Reproductive Age Group. *J Clin Diagn Res.* 2016 Aug;10(8):EC06-9.
4. Sofic A, Husic-Selimovic A, Carovac A, Jahic E, Smailbegovic V, Kupusovic J. The Significance of MRI Evaluation of the Uterine Junctional Zone in the Early Diagnosis of Adenomyosis. *Acta Inform Med.* 2016 Apr;24(2):103-6.
5. Tamura H., Kishi H., Kitade M. et al. Complications and outcomes of pregnant women with adenomyosis in Japan // *Reprod. Med. Biol.* 2017. Vol. 16. No. 4. P. 330–336.
6. Tapmeier T.T. A pale way to understand adenomyosis? / T.T. Tapmeier, M.K. Becker//*Fertility and sterility.* -2015. - V. 104. - № 6. - P. 1378-1378.
7. The members of the Endometriosis Guideline Core Group. Becker CM, Bokor A, et al. ESHRE guideline: endometriosis†. *Human Reprod Open.* 2022;
8. Tocci A., Greco E., Ubaldi F. M. Adenomyosis and «endometrial-subendometrial myometrium unit disruption disease» are two different entities. *Reprod BioMed Online.* 2008; 17(2): 285–291.
9. Vannuccini S, Luisi S, Tosti C, et al. : Role of medical therapy in the management of uterine adenomyosis. *Fertil Steril.* 2018;109(3):398–405.
10. Vannuccini S, Petraglia F. Recent advances in understanding and managing adenomyosis. *F1000Res.* 2019 Mar 13;8:F1000 Faculty Rev-283.



УЎК: 616-091.5:612.82:578.834.1

COVID-19-ДА БОШ МИЯ ҚОН ИНТРАКРАНИАЛ ТОМИРЛАРИНИНГ ИММУНОГИСТОКИМЁВИЙ ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Эшбаев Э.А.,
Ходжаев Ш.Н.

Аннотация: COVID-19 дан вафот этган беморлар аутопсияда бош мия тўқимаси ва бош мия қон томирларини иммуногистокимёвий текширишларда CD34, CD31, VEGFA-1 маркерларидан фойдаланилди. VEGFA-1 ушбу маркери асосида айнан томир эндотелийсининг кўпайиш омилларини бевосита боғлаганлиги ва неоангиогенез жараёни ва майда калибрли томирларнинг COVID-19 инфекциясида шикастланган сохаларида томир эндотелий ўсиш омиллини ҳар қандай ўзгаришларини баҳолашда позитив реакциясини баҳолаш орқали томирни эндотелий қаватини шикастланиши натижасида, тромбоз жараёнини мохиятини очиб беришда фойдаланилади.

Калит сўзлар: COVID-19, иммуногистокимёвий текшириш, экспрессия, бош мия интракраниал томирлар.

ИММУНОГИСТОХИМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНТРАКРАНИАЛЬНЫХ СОСУДОВ ГОЛОВНОГО МОЗГА ПРИ COVID-19

Аннотация. При аутопсийном исследовании пациентов, умерших от COVID-19, были проведены иммуногистохимические исследования ткани головного мозга и интракраниальных сосудов с использованием маркеров CD34, CD31 и VEGFA-1. На основе анализа маркера VEGFA-1, непосредственно связанного с факторами пролиферации сосудистого эндотелия и процессами неоангиогенеза, оценивалась позитивная реакция в участках поражения сосудов мелкого калибра при COVID-19. Это позволяло судить об изменениях факторов роста эндотелия сосудов и, через выявление повреждения эндотелиального слоя, лучше понимать сущность тромбообразования.

Ключевые слова: COVID-19, иммуногистохимическое исследование, экспрессия, интракраниальные сосуды головного мозга.

IMMUNOHISTOCHEMICAL FEATURES OF INTRACRANIAL CEREBRAL VESSELS IN COVID-19

Abstract. In autopsy cases of patients who died from COVID-19, immunohistochemical examination of brain tissue and intracranial cerebral vessels was performed using CD34, CD31, and VEGFA-1 markers. Based on the VEGFA-1 marker, which is directly associated with endothelial cell proliferation and



neoangiogenesis, a positive reaction was evaluated in the areas of small-caliber vessel damage in COVID-19. This approach made it possible to assess alterations in vascular endothelial growth factors and, through the detection of endothelial layer injury, to elucidate the mechanisms underlying thrombosis.

Keywords: COVID-19, immunohistochemistry, expression, intracranial cerebral vessels.

Муаммони долзарблиги. Дунё аҳолисида COVID-19 пандемиясидан вафот этганлар сони 200млндан ортиқ инсонни бевақт оламдан ўтишига олиб келган. COVID-19 да ер юзи аҳолисида асосан ўлимга олиб келувчи сабаблардан бири бу қон томирларни шикастланиши ва ЮИК, ЦВК, метаболик синдромда жами 125 млн инсонни ўлимига билвосита таъсир этиб, аксарият ушбу вафот этганларда SARS-CoV-2 аниқлангандир. COVID-19 пандемиясидан кейинги даврда хаётий муҳим аъзоларда қон томирларини шикастланиши, айниқса, бош мия, юрак, буйрак, ўпкаларни иккиламчи касалликлар таъсирида микроциркулятор ўзанда ўткир бузилишларга олиб келган. АҚШ ва Буюк Британияда COVID-19 да бош мияга қон қуйилиши билан 2020-2022 йил давомида ўртача, 2,1 млн аҳоли вафот этган бўлса, Европа давлатларида бу кўрсаткич 2020-2021 йилларда ўртача, 0,8 млн ни ташкил этган. Бу эса, COVID-19да бош мия қон томирларида ўткир гемодинамик бузилишларни юзага келганлигини тасдиқлайди. Россия федерацияси ва МДХ давлатларида, COVID-19 инфицирланганларда оғир неврологик ўзгаришлар сабабли вафот этганлар 2020-2021 йилларда ўртача, 4,2млнни ташкил этиб, асосий касаллик сифатида цереброваскуляр касалликлар келтирилган. Юқорида келтирилган SARS-CoV-2 инфицирланган организмда барча аъзолар қон томирларида ААФ-2 рецепторини фалажланиши, иккиламчи ёки билвосита зарарланган аъзоларда микроциркулятор ўзанда қон айланиши бузилишига олиб келиши, эндотелий хужайраларни тизимли дисфункциясига олиб келганлиги аниқланган.

Тадқиқот мақсади. COVID-19дан вафот этган беморлар бош мияси олдинги, ўрта ва орқа мия артериялар деворида ривожланган морфогенетик ва патоморфологик ўзгаришлар ҳақидаги маълумотларни ойдинлаштириш.

Тадқиқотнинг объекти. Тадқиқот материаллари сифатида 2020-2021 йилларда Республика патологик анатомия маркази Катталар патологияси бўлимида аутопсия текширувидан олинган аъзо-тўқималар ўрганилган. Тадқиқот гуруҳи сифатида коронавирус инфекциясидан вафот этган 31 ёшдан 75 ёшгача бўлган SARS-CoV-2 тасдиқланганлардан 107 та ҳолат аутопсиясида бош мия тўқимаси ва қон томирларидан материаллар олинган.

Тадқиқотнинг усуллари. COVID-19 дан вафот этган беморларнинг бош мия қон томирларини патологоанатомик хусусиятларини баҳолашда морфологик, иммуногистохимёвий, конфокал морфометрик ва статистик тадқиқот усулларида фойдаланилган.

Натижа ва муҳокамалар. COVID-19дан вафот этган беморлар аутопсияда бош мия тўқимаси ва бош мия қон томирларини



иммуногистохимёвий текширишларда CD34, CD31, VEGFA-1 маркерларидан фойдаланилди. CD34-мембрана оқсили, кўплаб тўқималарни мезенхимал хужайраларида экспрессияланувчи, гематопоезнинг дастлабки босқичларида қатнашувчи хужайралараро адгезив молекуласи бўлиб, томирлар эндотелийсини шикастланиши неоангеогенез даражасини баҳолаш учун текширилади. COVID-19 инфекциясида бош мия томирлар деворларида майда калибрли қон томирларнинг CD34 маркерида позитив экспрессия қуйидагиларни тасдиқлайди: эндотелий десквамациясида ва эндотелиозни, томир ички юзаси патологик пролиферациясини, интуссептив ангиогенез (томир девори битта, эндотелий 2 тага ажаралиб, томир каналини 2 га бўлишини), гломерулоид кўринишидаги томирлар чигалини юзага келишини тасдиқлайди. Шу билан бирга эндотелий мезенхимал трансформацияси оқибатида, CD34 маркерини паст позитив экспрессияси аниқланади. Бу ҳам ўз навбатида COVID-19 да томирлар морфофункционал хусусиятларини йўқотилишига олиб келганлигини англатади. Интуссептив ангиогенез жараёнида қон томирларда CD34 маркерини позитив экспрессия томирларда неоангиогенез эмас, балки томирни иккиланишини тасдиқлайдиган ўзгаришлар билан намоён бўлади.

CD31 (PECAM-1)-PECAM-1 лейкоцитларнинг трансэндотелиал миграциясида, ангиогенезда ва интегрин фаоллашувида иштирок этади.

Иммуногистохимёвий текширишларда CD31 маркери асосан эндотелиал хужайраларларида ўзаро боғлиқликни бузилишида, кўшувчи адгезив оқсил синтезини кучайиши, ААФ-2 рецепторларида COVID-19 кўзғатувчиларини жойлашиши томирни шикастланишига олиб келганда, CD31 маркерини синтези ошади ва томирлар девори мустахкалигини таъминлайди. Бу эса, CD31 маркерли адгезив оқсилларни компенсатор гиперпродукцияси сифатида қаралиб, томир ички деворида эндотелий юзаларидаги шикастланишларда жуда кўплаб адгезив оқсилларни тўпланиши ва гиперкоагуляцияси, тромбогенезни дастлабки омили сифатида қаралади. Айнан, ушбу CD31 адгезив оқсили антагонистини қўллаш томирларда микротромбозни олдини олишда муҳим кўрсатмалардан бири ҳисобланади.

Демак, CD31 (PECAM-1) маркерининг юқори позитив экспрессияси бўйича, шикастланган капилляр ва майда қон томирларни қайта ангиогенез жараёнини ривожланишини кўрсатиш билан бирга, COVID-19 да энг кўп шикастланиши томир интимасида микротромблар ва ўрта ва йирик томирларида тромбогенез жараёни ривожланишини тасдиқлайди.

Тадқиқотимизда ўрганилаётган, VEGFA-1 маркери орқали бош мия қон томирларида VEGFA-1 маркерининг паст даражадаги позитив экспрессияланиши, COVID-19 инфекциясида томир ўсиш омилини ҳар қандай стимулловчи омилларнинг кескин тормозланиши, майда калибрли томирлар ва капиллярлар деворининг бевосита шикастланиши орқали, мезенхимал хужайраларнинг эндотелий ўсиш омилини қўзғата оладиган даражадаги концентрацияда бўлмаслигини кўрсатади. Бу эса, ўз навбатида, шикастланган тўқима ва қон томирларнинг репаратив регенерациясини сусбституция



кўринишида ёки бутунлай чандиқланиш ва склероз кўринишида тугалланишини кўрсатади.

Хулоса

COVID-19да аксарият аъзоларда ривожланган яллиғланиш жараёнини охир оқибатида, CD34 маркерининг COVID-19 инфекциясида бош мия томири деворларида CD34 маркеридида позитив экспрессияланиши аксарият, яллиғланиш соҳаларида мезенхимал хужайраларнинг мавжудлигини кўрсатади.

CD31 (PECAM-1) маркерининг юқори позитив экспрессияси бўйича, шикастланган капилляр ва майда қон томирларни қайта ангиогенез жараёнини ривожланишини кўрсатиш билан бирга, COVID-19да томир деворининг ички юзаси энг кўп шикастланиши томир ички юзасида микротромблар ва ўрта ва йирик томирларда тромбогенез жараёни ривожланиши тасдиқлади.

COVID-19да аксарият аъзоларда ривожланган яллиғланиш жараёнини охир оқибатида, VEGFA-1 маркерининг COVID-19инфекциясида бош мия томир деворларини кескин қалинлашиши, томирлар бўшлиғида стенозларни ривожланиши, фибробластлар ва бошқа турдаги мезенхимал хужайраларни массив пролиферацияси томриларни деформацияси ва ишемик типдаги гемодинамик бузилишларга олиб келишини тасдиқлади. Тадқиқотимизда ўрганилган CD31, CD34 ва VEGFA-1 маркерлари орқали юқори позитив реакциялар ривожланганлигини кўрсатди. Бу эса, COVID-19 кўзгатувчиси томирлар ички юзасидаги ААФ-2 рецепторлари орқали томирларни массив шикастланишига олиб келганлигини исботлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Raffone A., Travaglini A., Saccone G., Alviggi C., Mascolo M., De Placido G., Insabato L., Mollo A., Zullo F. Management of women with atypical polypoid adenomyoma of the uterus: A quantitative systematic review. *Acta Obstet. Gynecol. Scand.* 2019;98:842–855.
2. Rowlands I.J., Abbott J.A., Montgomery G.W., Hockey R., Rogers P., Mishra G.D. Prevalence and incidence of endometriosis in Australian women: A data linkage cohort study. *Vjog.* 2020;128:657–665.
3. Singh P, Singh P, Chaurasia A, Dhingra V, Misra V. Expression of ER α and PR in Various Morphological Patterns of Abnormal Uterine Bleeding-Endometrial causes in Reproductive Age Group. *J Clin Diagn Res.* 2016 Aug;10(8):EC06-9.
4. Sofic A, Husic-Selimovic A, Carovac A, Jahic E, Smailbegovic V, Kupusovic J. The Significance of MRI Evaluation of the Uterine Junctional Zone in the Early Diagnosis of Adenomyosis. *Acta Inform Med.* 2016 Apr;24(2):103-6.
5. Tamura H., Kishi H., Kitade M. et al. Complications and outcomes of pregnant women with adenomyosis in Japan // *Reprod. Med. Biol.* 2017. Vol. 16. No. 4. P. 330–336.
6. Tapmeier T.T. A pale way to understand adenomyosis? / T.T. Tapmeier, M.K. Becker//*Fertility and sterility.* -2015. - V. 104. - № 6. - P. 1378-1378.



7. The members of the Endometriosis Guideline Core Group. Becker CM, Bokor A, et al. ESHRE guideline: endometriosis†. Human Reprod Open. 2022;
8. Tocci A., Greco E., Ubaldi F. M. Adenomyosis and «endometrial-subendometrial myometrium unit disruption disease» are two different entities. *Reprod BioMed Online*. 2008; 17(2): 285–291.
9. Vannuccini S, Luisi S, Tosti C, et al. : Role of medical therapy in the management of uterine adenomyosis. *Fertil Steril*. 2018;109(3):398–405.
10. Vannuccini S, Petraglia F. Recent advances in understanding and managing adenomyosis. *F1000Res*. 2019 Mar 13;8:F1000 Faculty Rev-283.

**БИОФАРМАЦЕВТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ПРОФИЛЯ
ВЫСВОБОЖДЕНИЯ ДЕЙСТВУЮЩИХ ВЕЩЕСТВ ИЗ
ГРАНУЛИРОВАННОЙ ЛЕКАРСТВЕННОЙ ФОРМЫ «СУЛЬФАПЕКТ»****Бекназарова Н.С.***Младший научный сотрудник
Института биоорганической химии
имени акад. О.С.Садыкова АН РУз*

Аннотация: Проведена биофармацевтическая оценка высвобождения сульфаметоксазола и триметоприма из гранулированной лекарственной формы «Сульфапект» методом *in vitro*. Исследования выполнены в средах с рН 2,0; 6,8 и 7,4. Установлено, что препарат обеспечивает контролируемое и пролонгированное высвобождение действующих веществ до 48 часов. Высвобождение сульфаметоксазола носит рН-зависимый характер, тогда как триметоприм демонстрирует стабильную кинетику. Полученные данные подтверждают сохранение биофармацевтических свойств препарата и его перспективность.

Ключевые слова: Сульфапект, гранулы, биофармацевтическая оценка, *in vitro*, высвобождение, сульфаметоксазол, триметоприм, пролонгированное высвобождение, рН-зависимость.

Рациональная разработка твердых лекарственных форм антибактериальных препаратов требует изучения кинетики высвобождения действующих веществ, поскольку данный параметр определяет их биодоступность и терапевтическую эффективность [1–3]. Особое внимание уделяется созданию модифицированных лекарственных форм, обеспечивающих контролируемое и пролонгированное высвобождение [4].

Комбинация сульфаметоксазола и триметоприма широко применяется благодаря синергическому механизму действия [5]. Однако при переводе модифицированных субстанций в готовые лекарственные формы возможно изменение их биофармацевтических свойств, что требует дополнительной оценки [6]. В этом аспекте представляет интерес гранулированная лекарственная форма «Сульфапект», состоящая из комплекса сульфаметоксазола с пектином и триметоприма.

Целью исследования являлось изучение кинетики высвобождения сульфаметоксазола и триметоприма из препарата «Сульфапект» методом *in vitro* при различных значениях рН [7–10].

Высвобождение изучали с использованием диализной методики. Содержимое одного саше растворяли в 200 мл воды и помещали в диализный мешок (MWCO 12–14 кДа), который инкубировали в 1000 мл буферной среды при $37 \pm 0,5$ °С и 100 об/мин. Использовали среды с рН 2,0; 6,8 и 7,4, моделирующие различные отделы желудочно-кишечного тракта [2,7]. Пробы



отбирали через 8–48 часов, количественный анализ проводили методом ВЭЖХ.

